



VATANPARVAR

MILLIY ARM

MUSTAHKAM QALQONIDIR!

● Gazeta 1992-yilning 24-iyun

● 2024-yil 28-iyun, №26 (3088)



MA'RIFATLI SHAXS
TARBIYASIDA HIKMATLAR O'RNI

12-13

PARVOZGA SHAY
LOCHINLAR

7

VATANPARVARLIK
RUHI YO'G'RILGAN

3

MARDLAR MUDOM MARDONADUR VATAN UCHUN



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

BIZ
HAQIMIZDA

@ vatanparvar-bt@umail.uz

t.me/mv_vatanparvar_uz

t.me/mudofaavazirligi

facebook.com/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI
BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda so'z va matbuot erkinligini rivojlantirish, xalqimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini mustahkamlash, demokratik islohotlarni amalga oshirish yo'lida faollik ko'rsatib kelayotgani, global axborot maydonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish, yurtimizdagi yangilanish jarayonlarini yoritish, erishilayotgan yutuqlarni keng targ'ib etishdagi katta xizmatlari, zamonaviy media tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash borasidagi samarali faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

"Mehnat shuhrati" ordeni bilan

Taypatov Abdijalol Gapparovich – O'zbekiston Milliy axborot agentligining hududiy axborot tahririyati bosh muharriri

Temirov Sobirjon G'ulamovich – Beshariq tumani "Beshariq tongi" gazetasi bosh muharriri, Farg'ona viloyati

"Do'stlik" ordeni bilan

Abdusamatova Mukaddas Salixovna – O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi va Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, publitsist

Beknazarova Saodat Uzbekovna – "Ovozi tojik" gazetasi katta muxbiri

Djurayeva Dilfuza Djangirovna – O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, publitsist, Surxondaryo viloyati

Klyatskiy Grigoriy Nikolayevich – "Ishonch-Doveriye" gazetasi bo'lim muharriri

Levchenko Sergey Vladimirovich – "Narodnoye slovo" gazetasi bo'lim muharriri

Nugmanov Ravshan Yakubdjanovich – O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Toshkent radioeshittirish uyi ovoz yozish xizmati rejissyori

Ochilov Quadrat Mengliyeich – "Bir safda" jurnali mas'ul kotibi

Paluanova Mnayim Pirnazarovna – "Nukus-Sayahat" mas'uliyati cheklangan jamiyatining "Jaslar-TV" telekanali va "Nukus-FM" radiosi direktori, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Sodikov Ikrom Mamadaliyevich – O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Namangan viloyati teleradiokompaniyasi direktori o'rinbosari

Toxirov Xalimjon Turgunovich – "Andijonnoma" va "Andijanskaya pravda" gazetalar tahririyatining "Andijonnoma.uz" internet nashri muharriri

Xakimov Talip Adilovich – Nurafshon shahri "Mash'al" gazetasi bosh muharriri, Toshkent viloyati

II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan

Boymirzayeva Saodat Urakovna – O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasining matbuot kotibi

Muminov Fayzullo Abdullayevich – O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining Jamoatchilik bilan aloqalar kafedrasini professori

Xasanova Zaxro Tulkunovna – "Gulxan" jurnali bosh muharriri

"Sog'lom turmush" medali bilan

Imomxo'jayev Zafar Axbarovich – O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi raisining axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi – matbuot kotibi

"Kelajak bunyodkori" medali bilan

Abduraximov Muslimbek Fozil o'g'li – "Zo'r TV" telekanalining "Bu kun" informatsion dasturi rahbari

"Shuhrat" medali bilan

Abdukadirov Dilshod Axmedjanovich – "Kun.uz" internet nashri bosh muharriri

Abduraxmanova Feruza Abduganiyevna – "Mening yurtim" telekanali boshlovchisi

Abidov Aziz Agzamovich – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Jamoatchilik bilan hamkorlik markazi boshlig'i – matbuot kotibi

Alimuxamedov Tuygun Vaxabovich – "O'zbekiston ko'zi o'jizlar bosmaxonasi" davlat unitar korxonasi muqovalovchisi

Bazarov Baxriddin Xaydarovich – "Akademnashr NMM" mas'uliyati cheklangan jamiyati bosh rassomi

Bayturayeva Guljamal Orinbasarovna – "Nurli jo'l" gazetasi bo'lim mudiri

Voxidova Nozima Raximovna – O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Madaniyat va ma'rifat telekanali" davlat muassasasi kino-videomahsulotlar va tezkor dublyaj muharririyati katta muharriri

Gulyamova Dilfuza Izzatovna – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyatining Navoiy viloyati bo'yicha maxsus muxbiri

Djamalov Kaxramon Djumayevich – O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston 24" telekanali muharrirlar guruhi bosh muharriri

Djumaboyeva Raxima Mustafayevna – O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Sirdaryo viloyati teleradiokompaniyasi televideniye guruhi katta muharriri

Zokirova Tursuntosh Normurodovna – O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Jizzax viloyati teleradiokompaniyasi radio guruhi muxbiri

Inoyatova Nazira Saypullayevna – "Avtoradio" radiosi dasturlar bo'yicha direktori va efir boshlovchisi

Klichbayev Abatbay Reimbayevich – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi qo'lyozmalar, noyob va alohida qiymatga ega nashrlar xizmati rahbari

Matchanova Intizor Jumaboyevna – O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston 24" telekanali Xorazm viloyati bo'yicha muxbiri

Murotova Muslima Kamolidinovna – O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston" radiokanalini rejissyorlar guruhi suxandoni

Niyazov Norbek Ramazanovich – O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston 24" telekanali yangiliklar muharririyati bosh muharriri

Pirnafasova Muhayyo Rustamovna – "Jadid" gazetasi adabiy muharriri

Saidov Sherodil Xudayberdiyevich – "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining chop etish sexi ustasi

Sulaymanova Aliya Ismailovna – "Darakchi.uz" internet nashri bosh muharriri

Sulaymonov Shodmon Sultonovich – "Buxoronom" va "Buxarskiy vestnik" gazetalar tahririyati bosh muharriri, Buxoro viloyati

Shamsiddinov Yolqin Xakimovich – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati huzuridagi Media-markazi yetakchi mutaxassisi

Eshonqulov Zamon Asrorovich – O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Samarqand viloyati teleradiokompaniyasi televideniye guruhi maxsus muxbiri

Yusupov Ahmad Mengnimuratovich – "Daryo.uz" internet nashri bosh muharriri

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 25-iyun

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrli do'stlar!

Avvalambor, o'z iste'dodi va mahorati, fidokorona mehnati bilan el-yurtimizga sidqidildan xizmat qilib kelayotgan siz, milliy jurnalistikamiz jonkuyarlarini, soha rivojiga munosib hissa qo'shgan muhtaram faxriylarimizni 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etib, barchangizga yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Ma'lumki, axborot sohasini erkinlashtirish va rivojlantirish Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelmoqda. Mamlakatimizning yangilangan Konstitutsiyasida ommaviy axborot vositalarining erkin faoliyat yuritishini ta'minlash bo'yicha muhim qoida va tamoyillar mustahkamlab qo'yilgani, sohaga doir huquqiy asoslar takomillashtirib borilayotgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Ayniqsa, keyingi yillarda yurtimizda so'z erkinligi va fikrlar xilma-xilligiga erishish yo'lida keng imkoniyatlar ochilayotgani media vositalari vakillarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, o'rni va nufuzini yanada kuchaytirmoqda.

Bugungi kunda jamiyatimizda ochiqlik va oshkoralikni rivojlantirish, davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, fuqarolarimizning qonuniy murojaatlarini o'rganish va hal qilish

borasida sizlarning o'ringiz va ta'siringiz tobora ortib borayotganini barchamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Shu o'rinda gazeta va jurnallarimiz, tele va radiokanallar, ijtimoiy tarmoqlarda turli mavzulardagi dolzarb chiqishlar, muammoli masalalar yuzasidan mutaxassis va ekspertlar ishtirokidagi ko'rsatuv va eshittirishlar, tahliliy sharhlar, bahs-munozaralar sezilarli ravishda ko'payganini ta'kidlash lozim.

Xususan, qurilish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashdagi kamchiliklar, ijtimoiy va iqtisodiy sohalaridagi muammolar bo'yicha berib borilayotgan tanqidiy va tahliliy materiallar joylarda mudrab o'tirgan ayrim rahbar va mutasaddilarni uyqudan uyg'otib, yangicha ishlab, odamlarning tashvishi bilan yashashga majbur qilmoqda.

Muxtasar aytganda, kuyunchak va oliyjanob jurnalistlarimiz, faol bloggerlarimiz o'zlarining qat'iy pozitsiyasi, haqqoniy so'zi bilan hayotimizdagi o'tkir muammolarni hal etish, islohotlarimizning samarasini oshirish, yurtdoshlarimizning fikrini, dunyoqarashini yuksaltirishga munosib hissa qo'shmoqdalar.

Hech shubhasiz, bularning barchasi milliy media vositalarimiz "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga yaqinlashib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday yuksak marraga yetish oson

emasligi, bu yo'lda to'siq va qiyinchiliklar bo'lishi tabiiydir.

Lekin, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu boradagi ishlarimizni qat'iyat bilan davom ettiramiz.

Muhtaram do'stlar!

Bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat "to'rtinchi hokimiyat", balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda.

Bu esa mazkur yo'nalishda aynan sizlardek jasur va dovyurak, Vatanni chin dildan sevadigan, o'z kasbiga sodiq va fidoyi insonlar tobora ko'proq bo'lishini taqozo etmoqda.

Ana shu talabdan kelib chiqqan holda, ko'p qirrali professional bilim va malakaga, yuksak ma'naviy-intellektual fazilatlariga ega bo'lgan zamonaviy jurnalist kadrlar tayyorlash bundan buyon ham ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi.

Shu bilan birga, axborot maydonini sifatli va raqobatdosh milliy kontent bilan to'ldirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib borayotgani barchamiz uchun ayon haqiqatdir.

Shu bois dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarni milliy manfaatlarimizni hisobga olgan holda, tezkor va chuqur tahlillar asosida yoritib borish o'ta muhim, deb o'ylayman.

Shuningdek, bugungi kunda yolg'on va asossiz ma'lumotlarni tarqatish orqali odamlarni aldash, to'g'ri yo'ldan chalg'itish

holatlari ko'payib borayotgani aholining media savodxonligini oshirishni oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan vazifa qilib qo'ymoqda. Axborot maydonida yuzaga kelayotgan bahsli tortishuv va muammolar faqat va faqat qonun doirasida, huquqiy me'yorlar negizida hal etilishi shart.

Siz, hurmatli media tarmoqlari vakillari ana shunday masalalarni hal etishda faol ishtirok etasiz, deb ishonaman.

Albatta, sohada xizmat qilayotgan barcha yurtdoshlarimizning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning mashaqqatli mehnatini rag'batlantirish masalalari bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Ushbu quvonchli ayyomda sizlarni qutlug' kasb bayramingiz bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, sharaflil faoliyatingizda yangi yutuq va omadlar, xonadonlaringizga tinchlik va fayz-u baraka tilayman.

Fursatdan foydalanib, bugungi bayram munosabati bilan yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan ommaviy axborot vositalari xodimlarini chin dildan qutlayman.

Izlanish va ilhom zavqi, yangi ijodiy yutuqlar sizlarga hamisha yor bo'lsin, azizlar!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Vatanparvarlik

ruhi yo'g'rilgan

Chilla. Jazirama issiq. Hayot ham qaynamoqda. Ayniqsa, Yoshlar kuni yaqinlashgani sari bu jo'shqinlik yanada yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Qurolli Kuchlar akademiyasida bo'lib o'tgan "Yoshlarimiz ma'naviyati va intellektual salohiyatini oshirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning dolzarb masalalari"ga bag'ishlangan rahbar va yoshlar uchrashuvi ham ana shu jo'shqinlikning bir bo'lagidir.



Bayramona ruh akademiya hovlisiga qadam bosishingiz bilan bilinadi. Yoshlarda yaxshi kayfiyatni "yuqtirish" fazilati bor. Ular bor davrlarda shodlik, umid, ertangi kunga ishonch bor.

Qurolli Kuchlar akademiyasi mazkur tadbirga jiddiy tayyorgarlik ko'rganini harbiy xizmatchi yoshlarning harbiy sohaga oid innovatsion g'oya va ishlanmalari ko'rgazmasi namoyishidan ham bilish mumkin. Mudofaa vazirligi harbiy orkestrining bayramona musiqa sadolari ostida tadbir ishtirokchilarini kutib olgani ko'ngillarga bir olam zavq-shavq ulashgani alohida e'tirofga arziydi.

Uchrashuv O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi bilan boshlandi. Yoshlar hayotiga bag'ishlangan videorolik namoyish etildi.

Mudofaa vaziri general-leytenant B. Qurbonovning "Yosh harbiylarga murojaat"ini mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev o'qib eshittirdi.

Tadbirida so'zga chiqqanlar... Va bu yerda ketma-ket uchrashuvda so'zga chiqqan insonlarni keltirib o'tishimiz mumkin. Keling, shu rasmiy va quruq xabar o'rniga uchrashuv qatnashchilarini to'lqinlantirgan suhbatlardan parchalar keltiraylik.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari Botirjon Ergashev yig'ilganlarni yaqinlashayotgan Yoshlar kuni bilan qutlar ekan, jumladan shunday dedi:

– General-mayor Hamdam Aliqulovichni tinglab turib... yashirmayman, guvohi ham bo'ldingiz, meningcha, ko'zlarimga yosh keldi. Harbiy xizmatchilarimizning xalqaro maydonlarda erishgan yutuqlari, "Vatan tayanchi" jamoasi yoshlarining rekord natijalari... Bu dargohga ko'p bora kelganman, Vatan himoyachilari huzuriga kelishni yoqtiraman. Yolg'ondan chaqirsangiz ham, rostdan kelaman.

Sizni yaxshi ko'raman, hurmat qilaman, g'urur tuyaman. Qani edi, o'g'illarimdan biri bu sharafligini kasbini tanlasa. Ota sifatida u bilan g'ururlanardim. Asli, har biringiz bilan g'ururlanaman. Sizlar borki, ijod qilyapmiz, farzandlarimiz emin-erkin o'qiyapti...

Shoirilar kirgan davralarning fayzi bo'lakcha. "Ozod o'g'lim, hur o'g'lim" kabi she'rlar yangrasa, bir mardona ruhdan ko'ngillar oziqlanadi.

– Orangizda besh o'g'ilning erkasi, arzandasi – ukamiz borligidan faxrlanaman, – deydi Alisher Boymurodov. – U birinchi kursni bitirdi. Vatan, vatanparvarlik haqida so'z ketganida biz, aka-ukalar kenjamizni tinglaymiz. Aynan shu qutlug' mavzuda ukam akalarga ustozdir!

Zaldan kim u, ukangiz kim, degan savollar eshittildi. "Kursant Behzod Eshmatov!" deya mehr va g'urur bilan javob qildi aka.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi Shahnoza Joldasova bayram bugundan, ya'ni 25-iyun kuni Xalqaro yoshlar festivali bilan boshlanganini aytib o'tdi. Shuningdek, 2016-yili davlatimiz rahbarining ilk imzolagan muhim hujjatlardan biri aynan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun bo'lganini alohida ta'kidladi.

Oramizdagi afsonalar... Biz odatda yonginamizda, oramizda tirik afsonalar

yurganini payqamaymiz. Axir ular unchalik ko'p emas. Noyob hodisalar ham deyish mumkin. Serjant Muhridin Ochilov mardlik, matonat timsoli bo'lgan ana shunday tirik afsonalarning biridir. Dunyodagi eng kuchli jangchi! Bu e'tirofga nufuzli xalqaro musobaqada sazovor bo'lgan! Dunyoning eng kuchli jangchisi tirik afsona bo'la olmaydimi?! Bo'ladi, albatta!

Tadbir ishtirokchilari uning suhbatidan ham bahramand bo'ldi.

Uchrashuv onlayn tarzda barcha viloyatlarga ham uzatilganini aytishni unutay debmiz. So'zga chiqqanlar orasida muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askarlar Shohruz Raimboyev, Muhammadusmon Muqimjonovni tengdoshlari qizg'in qarshi oldi. Negaki, ularning murakkab hayot yo'llarida Vatan himoyachilarining munosib o'rni bor.

Tadbirida Yoshlar ittifoqining Mudofaa vazirligi harbiy qism va muassasalaridagi boshlang'ich tashkilot yetakchilar kengashi raisi podpolkovnik Sardorbek Abdusamatovning hisoboti ham tinglandi.

Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi yosh harbiy xizmatchilari tomonidan tayyorlangan "Jadidlar" deb nomlangan sahna ko'rinishlarini yig'ilganlar olqishlar bilan kutib oldi. Kuy-qo'shiqlar uchrashuv fayziga fayz qo'shdi.

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"

Tantanalı marosim

Mamlakatimizdagi eng nufuzli va tayanch oliy harbiy ta'lim muassasa sanalgan Qurolli Kuchlar akademiyasida navbatdagi bitiruv marosimi bo'lib o'tdi.



Muallif suratga olgan

Tantanada mudofaa vaziri general-leytenant Bahodir Qurbonov ishtirok etib, yosh ofitserlarni qutladi, ularga ta'lim-tarbiya bergan ustoz-murabbiylar va ota-onalarning mehnatini e'tirof etdi.

Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari ham bitiruvchilarga o'zining samimiy

tilaklarini bildirdi. Yosh leytenantlar ham zimmasidagi ulkan mas'uliyatni his qilgan holda bildirilgan yuksak ishonchga munosib faoliyat yuritishga va'da berdilar.

Ta'kidlash kerakki, amalga oshirilayotgan aniq chora-tadbirlar tufayli ofitserlar tarkibi o'zining dunyoqarashi, bilim va tajribasini doimiy ravishda kengaytirib, yuksak kasbiy malaka va ma'naviy-

axloqiy fazilatlariga, mantiqiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lib bormoqda. O'z oldida turgan vazifalarni hal etishda nostandart yondashuvlarni faol qo'llashga qodir bo'lmoqda.

Bitiruv marosimi so'ngida turli sahna ko'rinishlari, qo'ljangi bo'yicha chiqishlar hamda Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli tomonidan tayyorlangan konsert dasturi namoyish etildi.



Muallif suratga olgan

Magistratura qaldirg'ochlari

Shu kuni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida sirtqi ta'lim bo'limining "Pedagogika va psixologiya" mutaxassisligi bo'yicha tahsil olgan magistrarga ham diplomlar topshirildi.

Tadbirda mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, Qurolli Kuchlar akademiyasi rahbariyati, shuningdek vazirlik mas'ul ofitserlari, oliy harbiy ta'lim muassasasi shaxsiy tarkibi va bitiruvchilarning yaqinlari ishtirok etdi.

E'tiborlisi, magistratura bosqichi qaldirg'ochlarining 20 nafari o'qishni imtiyozli tamomlagan bo'lib, ularga diplomlar mudofaa vazirining o'rinbosari tomonidan topshirildi.

So'zga chiqqanlar magistratura sirtqi ta'limning ochilishi nafaqat harbiy pedagoglar uchun, balki ilmiy izlanuvchi harbiy xizmatchilar uchun ham bir qator imkoniyatlar taqdim etishini alohida ta'kidladi. Bitiruvchilar kelgusida bu ishonchga munosib xizmat qilishga tantanalı va'da berdi.



Muallif suratga olgan

Tarixiy va unutilmas sana

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Harbiy tibbiyot akademiyasida ham navbatdagi bitiruvga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Unda mudofaa vaziri o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev, Sog'liqni saqlash vazirligi mas'ullari, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a'zolari va bitiruvchilarning yaqinlari ishtirok etdi.

Tadbir avvalida dastlab mudofaa vazirining tegishli buyrug'iga ko'ra, akademianing bakalavriat yo'nalishini tamomlayotgan tibbiy xizmat leytenantlariga diplom va ko'krak nishonlari topshirildi. Shundan so'ng yosh shifokorlar Abu Ali ibn Sino singari buyuk ajdodlarimiz shonli an'alarini davom ettirish maqsadida tantanali ravishda O'zbekiston Respublikasi Shifokorining qasamyodini qabul qildi. Shu orqali o'zlarining mashaqqatli va sharaflari kasbiga sodiqligini namoyon etdilar.

Mamlakatimiz Prezidenti tashabbusi va topshiriqlariga asosan tashkil etilgan mazkur oliygoh Markaziy Osiyo mintaqasida tibbiyot sohasiga oid yagona oliy harbiy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Ushbu muassasada Mudofaa vazirligining Markaziy harbiy klinik gospiatalining moddiy-texnik bazasi va malakali tibbiyot mutaxassislarini o'quv jarayoniga jalb etish orqali nazariya bilan amaliyot uyg'unligi ta'minlangan.

Akademianing o'quv binosida AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya, Turkiya va boshqa rivojlangan davlatlar tajribasi asosida O'quv-mashq simulyatsiya markazi tashkil etilgan bo'lib, mazkur markaz zamonaviy robot-manekenlar, simulyatorlar

bilan jihozlangan. Unda taktik tibbiyotdan boshlab klinik tibbiyotga qadar kursant va tinglovchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish tizimi joriy qilingan.

Tadbirda so'zga chiqqan mudofaa vaziri o'rinbosari akademiya faoliyati haqida to'xtalar ekan, shu kungacha erishilgan yutuqlarni alohida e'tirof etdi. Shu asnoda harbiy tibbiyotning istiqboli bo'lgan bitiruvchilarni ushbu tarixiy va unutilmas sana bilan qutlab, ularning kelgusidagi faoliyatlariga ulkan zafarlar tiladi.


Endilikda bu bitiruvchilar o'zlari tanlagan tor mutaxassislik bo'yicha harbiy internaturada tahsilni davom ettiradi.

G. HOJIMURODOVA



Taassurot va hayajonga boy shodiyona

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti bitiruvchilariga tantanali tarzda diplom va ko'krak nishonlari topshirildi.



Tantanali marosimda mudofaa vazirining birinchi o'rinbosari – Qurolli Kuchlar Bosh shtab boshlig'i general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi vakillari, bitiruvchilarning oila a'zolari ishtirok etdi.

Marosimda so'zga chiqqanlar O'zbekiston harbiy salohiyatini takomillashtirishga qaratilgan chora-

tadbirlar bugun o'z samarasini berayotgani, professional armiyamiz saflarini malakali harbiy kadrlar bilan muntazam to'ldirib borish borasida Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti muhim ta'lim muassasalaridan biri ekanini ta'kidladi.

Oliy harbiy ta'lim muassasasi kursantlari

tomonidan namoyish etilgan qo'ljangi usullari va faxriy qorovulning ko'rgazmali chiqishlari mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"

Fayzli kun shukuhi

Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida o'tkazilgan navbatdagi bitiruv marosimi yosh ofitserlar uchun hayajonga boy bo'ldi.

Tadbirni mudofaa vaziri o'rinbosari polkovnik Qodirjon Tursunov ochib berar ekan, barchani ushbu unutilmas kun bilan qutlab, bu maskan milliy harbiy kadrlarni tayyorlashda yetakchi harbiy ta'lim markaziga aylanganini, mazkur ilmiy dargohda nafaqat mamlakatimiz, balki qo'shni davlatlardan kelgan kursantlar ham tahsil olayotganlarini faxr bilan ta'kidlab o'tdi.

Saf maydonida jangovar bayroq mag'rur hilpiradi. Ofitserlarga diplom va esdalik

sovg'alar davomiy olqishlar bilan topshirildi.

So'zga chiqqan turli muassasa va tashkilotlar vakillari ham ushbu bitiruvchi leytenantlar o'zlari bilan armiyamizga yangi bilim va tafakkur, innovatsion g'oya va tashabbuslar olib kirishiga, izchil islohotlarimizning faol davomchisi bo'lishiga ishonch bildirdi. Ayniqsa, bitiruvchilar va ular ota-onalarining hayajonli nutqlari barchani birdek to'lqinlantirdi.

Bitiruv marosimining badiiy qismi Toshkent shahri Yangi hayot tumani bolalar musiqiy maktabi o'quvchilarining "Yangi O'zbekiston farzandlarimiz" nomli musiqiy chiqishlari, desantchilar harbiy qismining qo'ljangi namoyishlari, "Impuls" jamoasi kuy-qo'shiqlari bilan barchaga xush kayfiyat ulashdi.

**Kapitan
Bobur ELMURODOV,
"Vatanparvar"**



Vatanga qasamyod

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markazida Toshkent shahridagi 11 ta oliy o'quv muassasasida ta'lim olgan talabalar Vatanga qasamyod qabul qildi.



Tantanali tadbirda O'zbekiston mudofaa vazirining o'rinbosarlari general-mayor Hamdam Qarshiyev, polkovnik Zoirjon Bozorboyev, O'zMU birinchi prorektori Jabbor Muhammadiyev, markaz boshlig'i polkovnik Kozim Haydarov va boshqalar Vatanga qasamyod har bir o'g'lonning hayot qomusi ekanini qayd etib, bitiruvchilarni samimiy qutladi. Ushbu qasamyod yurt posbonining ona Vatanga sodiq bo'lishga bergan muqaddas onti, uning har bir so'zi er yigitga xalqimiz, Prezidentimiz oldida mamlakatimiz suvereniteti va hududiy yaxlitligining ishonchli himoyasi uchun yuksak mas'uliyatni eslatib turishi ta'kidlandi.

– Markazda mezbon universitet bilan birga Toshkent davlat texnika, Transport, Agrar, Iqtisodiyot, Sharqshunoslik hamda Yuridik universitetlari, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,

Toshkent shahridagi Xalqaro Vestminster universiteti, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti, Toshkent moliya instituti talabalari bir yil mobaynida asosiy oliy ta'lim muassasasidagi o'qishidan ajralmagan holda 574 soatlik harbiy ta'lim dasturi bo'yicha o'qidi, – deydi markazning tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar sikli boshlig'i podpolkovnik Saidikromxo'ja Usmonov. – Ularga haftada ikki kun yuqori malakali professor-o'qituvchilar saboq berdi. Nazariy mashg'ulotlarda olingan bilimlar Mudofaa vazirligi tasarrufidagi harbiy qism va muassasalar hamda dala-o'quv maydonlarida amaliy tarzda mustahkamlandi.

Ma'lumot o'rmda keltirish joizki, O'zbekiston Milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o'quv markaziga oliy ta'lim muassasalarining 2-bosqichini tamomlab, tibbiy ko'rik, jismoniy tayyorgarlik

sinovlari hamda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha testdan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qabul qilinadi. Unda Qurolli Kuchlarda tarbiyaviy-mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish, umumqo'shin-qo'mondonlik, artilleriya bo'linmalari, front orti ta'minoti, zirhli texnikalarni ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash, aviatsiya muhandislari (mutaxassisliklari), muhandis-sapyorlar tayyorlash, avtomobil texnikalarini ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash sikli, havo hujumidan mudofaa qo'shinlari hamda maxsus harakatlar sikli bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bir yillik o'quvlar so'ngida yakuniy davlat imtihonlarini topshirgan bitiruvchilar "zaxiradagi leytenant" unvoniga ega bo'ladi.

Tadbirda harbiy orkestr hamda Qurolli Kuchlar akademiyasi kursantlarining qo'ljangi chiqishlari barchaga yuqori kayfiyat bag'ishladi.

D. RO'ZIQULOV



Parvozga shay lochinlar

Mamlakat tayanchi, taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan yoshlar masalasi davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugun jamiyatimizning qaysi bo'g'iniga qaramaylik, kelajagimiz bunyodkorlari bilan olib borilayotgan ishlar tizimli yo'lga qo'yilganiga guvoh bo'lamiz. Mazkur yo'nalishdagi vazifalar ijrosi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari qo'mondonligi harbiy qism va bo'linmalarida ham muntazam ravishda ta'minlab kelinmoqda.



Xususan, Termiz shahrida faoliyat olib borayotgan "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyida ham milliy istiqlol g'oyalariga sodiq bo'lgan, yuksak salohiyatli, haqiqiy vatanparvar harbiy kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga katta e'tibor qaratilib, ta'lim dargohida yoshlarning zamonaviy bilim olishlari, raqamli texnologiyalar hamda harbiy texnikalarni mukammal egallashlari, shuningdek jismonan sog'lom va ma'nan yetuk bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Albatta, bunday g'amxo'rlik va e'tiborga javoban litsey o'quvchilari ham malakali ustozlari ko'magida respublika fan olimpiadalarida, sport chempionatlarida, xorijiy tillar hamda umumta'lim fanlarini bilish bo'yicha milliy sertifikatlarni qo'lga kiritish borasida, shuningdek turli ko'rik-tanlov va musobaqalarda munosib ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Joriy yilda mazkur ta'lim dargohini tamomlagan bitiruvchilarni

mustaqil hayotga kuzatish tadbiri ham ikki yillik ta'lim-tarbiya va harbiy tayyorgarlik jarayonlarining sarhisobi sifatida namoyon bo'ldi. Ikki yil avval ezgu niyatlar bilan qadalgan nihollar bugun ko'zlarni quvontirgan holda to'la-to'kis bo'y ko'rsatib, bitiruvchilar sifatida saf maydonida qad rostladi. Tadbirda Chegara qo'shinlari qo'mondoni, mas'ul ofitserlar, faxriylar, hamkorlikdagi kuch tuzilmalari vakillari, litsey jamoasi hamda o'quvchi-yoshlarning ota-onalari va yaqinlari ishtirok etdi.

Unda so'z olganlar bitiruvchilarni samimiy qutlab, kelgusida qay soha egasi bo'lishlaridan qat'i nazar, yurtga nafi tegadigan, jamiyatimiz ravnaqi va rivoji uchun xizmat qiluvchi munosib kadrlar bo'lib yetishishlarini, olgan bilim va ko'nikmalarini samarali qo'llagan holda oldilarida turgan sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, oliy ta'lim muassasalarining baxtiyor talabalari safiga qo'shilishlarini tiladi. Shundan so'ng bitiruvchilarga diplomlarni

tantanali tarzda topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

– Rivojlanish yo'lidagi har bir davlat kuchli harbiy salohiyat bilan birga mustahkam ma'naviy poydevorga ham ega bo'lishi kerak. Ayni shu ma'noda bugun milliy armiyamizning qudrati va jangovar salohiyatini belgilaydigan asosiy omil sifatida ma'nan yetuk, burchiga sadoqatli, mard va jasur harbiy kadrlarni tayyorlash masalasi namoyon bo'lmoqda. Jamoamiz bilan birgalikda ana shunday iqtidorli, salohiyatli, yurtimiz sarhadlarini muqaddas bilib, uni qo'riqlash ishini o'z hayotining mazmuniga aylantira oladigan fidoyi, vatanparvar yoshlarni tarbiyalashga harakat qilyapmiz. O'quvchilarimizning ko'rsatayotgan natijalari ham maqtovga sazovor. Fursatdan foydalanib, shunday yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazgan qadrlil ota-onalarimizga o'z tashakkurimni izhor etaman. Shuningdek, litseyimizning jonkuyar, fidoyi va malakali ustozlari hamda

har jihatdan ko'mak berib kelayotgan DXX rahbariyati va Chegara qo'shinlari qo'mondonligiga ham alohida minnatdorlik bildiraman. Ishonchim komilki, biz bundan keyin ham birgalikda, hamnafas bo'lib, farzandlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning iste'dod-u qobiliyati, ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, intellektual salohiyatini yanada yuksaltirib, ijtimoiy faolligini oshirish yo'lida bor kuch-g'ayratimizni safarbar etamiz, – deydi litsey direktori Muzaffar Norqobilov.

Tadbirning badiiy qismida san'atkorlar hamda badiiy havaskorlik jamoalari tomonidan taqdim etilgan konsert dasturi barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Biz bitiruvchilarni mustaqil hayotga qadam qo'yayotganlari bilan qutlab, kelgusida yuksak parvozlar tilab qolamiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zotan, yoshlar – millat kelajagi, ertangi kunimizning munosib vorislari. Ularning bugun komil ishonch va qat'iyat bilan olg'a tashlayotgan qadamlari ulardan kutayotgan orzu-umidlarimiz ijobatidan nishonadir. Barcha sohada yetuk bilimga ega chin ma'nodagi ma'naviyatli, shunday intiluvchan va tirishqoq yoshlarning borligi esa Vatanimiz ertasi ishonchli qo'llarda ekanidan dalolat beradi.



Yoshlar — xalqimiz



E'tirofga sazovor jihati, bu o'g'il-qizlar doim shu yurt, shu Vatan uchun munosib avlod bo'lishga intiladi. Shuning uchun xalqaro musobaqalarda Vatan bayrog'ini baland ko'tarayotgan yoshlarni ko'rganimizda qalbimiz cheksiz g'urur va iftixor tuyg'ularidan junbishga keladi. Mudofaa vazirligi huzuridagi “Vatan tayanchi” bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolarining Qozog'iston Respublikasida o'tkazilgan “Aybin – 2024” X Xalqaro harbiy-vatanparvarlik yig'inida muvaffaqiyatli ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritgani barchamizni ikki karra quvontirdi. O'g'il-qizlarimizning bu yutug'i 30-iyun – Yoshlar kuni bayramiga munosib to'yona bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimizning tegishli qarori bilan 2022-yilda tashkil etilgan Mudofaa vazirligi huzuridagi “Vatan tayanchi” bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati bugun yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar eshigini ochyapti. Ularning har tomonlama yurtga munosib avlod bo'lib kamol topishi, harbiy-vatanparvarlik ruhida shakllanishi, eng muhimi, jamiyatda o'rin topishi uchun mustahkam poydevor bo'lmoqda.

Qarorga muvofiq, harakatning 14 ta hududiy bo'limi hamda 188 ta tuman bo'linmasi tashkil etildi. 2022/2023-o'quv yilida respublika bo'yicha jami 177 mingdan ortiq yoshni qamrab olgan 9 858 ta “Vatan tayanchi” otryadi tuzildi. 2023/2024-o'quv yilida harakatga a'zo bo'lganlar soni 186 525 nafarga yetdi. Umumiy hisobda, o'tgan davr mobaynida davlat umumta'lim maktablarini bitirib ketgan o'smirlar

bilan qo'shganda 250 mingdan ortiq o'quvchi-yosh “Vatan tayanchi” harakatiga a'zo bo'ldi.

2022/2023-o'quv yili yakuni bo'yicha “Vatan tayanchi” harakatining faoliyatida faol ishtirok etgan hamda davlat umumta'lim maktabini a'lo baholar bilan tamomlagan “Vatan tayanchi” otryadining 6 260 nafar a'zosiga oliy harbiy ta'lim muassasasiga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanoma berildi. Bugungi kunda 221 nafar “Vatan tayanchi” harakati a'zolari bo'lgan o'smir Mudofaa vazirligining oliy harbiy ta'lim muassasalarida tahsil olmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, bugungi kunga qadar “Vatan tayanchi” otryadlari tomonidan 10 ta yo'nalishda 18 mingdan ortiq turli xil tadbir tashkil etildi. Jumladan, joylarda o'tkaziladigan uch avlod uchrashuvi, mudofaaga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkilotining amaliy va texnik yo'nalishdagi to'garaklari, harbiy sport musobaqalari, harbiy qismlar hamda poligonlarga uyushtirilayotgan sayohatlar orqali yoshlarning harbiy sohadagi ilk ko'nikmalari shakllantirilmoqda.

Muhimi, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchi-yoshlarini milliy urf-odatlarimiz hamda qadriyatlarimizga hurmat va harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularning Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar bo'lib kamol topishida Mudofaa hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliklari bilan yo'lga qo'yilgan tizimli va maqsadli ishlar o'zining samarasini bermiqda. Natijada o'quvchi-yoshlar o'rtasida





ishonchi, Vatan tayanchi

sog'lom muhit shakllanyapti, ularda yurtga, ota-onaga bo'lgan daxldorlik va g'amxo'rlik hissini yanada oshirmoqda.

Ha, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga xizmat qilayotgan "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va uning a'zolari tomonidan erishilayotgan muvaffaqiyatlarning ko'lami keng. Fikrimizga ularning "Aybin - 2024" X Xalqaro harbiy-vatanparvarlik yig'inidagi ishtiroki yaqqol dalil bo'ladi.

Eslatib o'tamiz, o'tgan yili ham Mudofaa vazirligi "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati jamoasi Qozog'istonning Qarag'anda viloyatidagi "Spassk" o'quv markazida o'tkazilgan "Aybin - 2023" IX Xalqaro harbiy-vatanparvarlik yig'inida ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritgan edi.

Bu yilgi yig'in Olmaota shahridagi Quruqlikdagi qo'shinlar harbiy institutida bo'lib o'tdi.

Unda Qozog'iston, Ozarbayjon, Belarus, Qirg'iziston, O'zbekiston Respublikalari va Rossiya Federatsiyasidan kelgan 750 nafar o'g'il-qizdan iborat 50 ta jamoa o'zaro kuch sinashdi.

"Aybin Star" ijodiy sharti, "Aybin sovg'asi" intellektual o'yini, robototexniklar o'rtasida "Bilimdon askar", "AK-74" qurolini noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish kabi shartlar ishtirokchilarning qanchalik bilimdon va salohiyatli ekanini sinovdan o'tkazgan bo'lsa, turnikda tortilish kabi mashqlar ularning jismoniy imkoniyatlarini namoyon qildi.

Musobaqada yurtimiz sharafiga himoya qilgan "Vatan tayanchi" jamoasi pnevmatik quroldan o'q otib, belgilangan nishonlarni ishg'ol qilish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni qo'lga kiritdi. Jamoa a'zosi Davronbek Ubaydullayev esa o'qotar qurolni noto'liq qismlarga ajratib-yig'ishda rekord natijani qayd etdi.

Yig'in davomida, shuningdek milliy o'yinlar bo'yicha ham bellashuvlar o'tkazildi. Asosiysi, yoshlarimiz barcha yo'nalishlar bo'yicha peshqadamlikni qo'ldan boy bermadi.

Bir necha kun davom etgan murosasiz bahslar yakunida "Vatan tayanchi" jamoasi umumjamoa hisobida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Birinchi o'rin esa mezbon - Qozog'iston jamoasiga nasib etdi.

Toshkent xalqaro aeroportida "Aybin - 2024" harbiy-vatanparvarlar yig'inida muvaffaqiyatli ishtirok etib, Vatanimizga qaytgan yoshlar tantanali kutib olindi.

Shuningdek, joylarda, mahallalarda ham bu muzaffar yoshlarni munosib qarshi olish tadbirlari o'tkazildi. Ular bilan uchrashuvlar tashkil qilindi. Ularning yutuqlari nuroniylar, faollar tomonidan yuksak e'tirof etildi. Bunday o'g'il-qizlarimiz Vatanimizning chinakam tayanchi va suyanchi ekani ta'kidlandi.

Albatta, bu o'g'il-qizlarning erishgan zafarlari, ezgu harakatlari o'sib kelayotgan yosh avlod uchun ibrat bo'lajakdir.


**Podpolkovnik
Gulnora HOJIMURODOVA
"Vatanparvar"**



Qahramon jangchilarning munis onalari haqida soʻz



Men harbiy jurnalist. Kasbim taqozosi bilan koʻp bor yurtimiz boʻylab xizmat safarlarida boʻldim. Poytaxtga bir olam taassurotlar bilan qaytdim. Koʻrgan-kechirganlarim, taniqli insonlar, Vatan himoyachilari, ularning farzandlari, onalari, otalari haqida toʻlib-toshib yozdim.




Serijant Muhiddin Eshtemirov



Katta leytenant Ismatillo Xodjayev



Serijant Doniyorbek Tojiboyev



Katta serijant Elomon Otajonov



Starshina Ulugʻbek Barnoyev

Xizmat safarlari... Ular orasida juda ogʻir kechganlari bor. Nimasi ogʻir edi? Xizmat koʻrsatish darajasi hanuz haminqadar boʻlgan temiryoʻl poyezdlari haqida indamayman. Olis yoʻllarda buzilib qoladigan avtobuslar... ular oʻtmishda qoldi. Sharoitsiz mehmonxonalar... eslashga arzimaydi. Nazorat-oʻtish punktida nima uchun kelganing haqida “hisobot” berish, qaysidir masʼulni uzoq kutishlar... bularni ham unutilib, ishing bilan ovora boʻlib qolasan.

Eng ogʻir kechgan xizmat safarlari... Bu – Vatan himoyasi yoʻlida halok boʻlgan jangchining ota-onasi huzurida boʻlish, dardlarini yangilab, ular bilan farzandlari haqida suhbatlashish.

Ha, bunday uchrashuvlar juda ogʻir. Bir vaqtning oʻzida quvonchli, gʻamli xotiralarning yurakdan yurakka koʻchishi ogʻir hodisa. U bir onaning gʻami emas, birgina uning xotiralari emas! Tinglayotganimda, qogʻozga koʻchirayotganimda ular menikiga ham aylanadi. Chunki men ham ayol, men ham ona!

Qahramon jangchi, shahidimiz Muhiddin Eshtemirovning onasi Manzura aya Termiz shahrining biqinida yashaydi. Men ancha vaqt avval bu xonadon bekasini

ziyosat qilishni niyat qilib qoʻygan edim. Kech boʻlsa-da, nasib etdi. Kech deganimning maʼnisi, qahramonimizning otasi bu vaqtga kelib olamdan oʻtgan edi. Manzura aya oʻgʻli haqida shularni gapirgan edi:

“...U tongda tugʻilgan edi. Atrofidan odam arimasdi. Talabalik yillari paxta terimiga chiqqanida ortidan totli taomlar tayyorlab borardik. Qizlarga ilinardi. Shu sababmi qizlar ham unga parvona edi.

Uni eslamagan kunim yoʻq. Ayniqsa, soʻnggi bor xayrlashganimiz... Oxirgi marta uyga kelganida qandaydir mashqi pastroq koʻrindi, rangi oqargandek. Savolimga “Hammasi yaxshi”, deb qoʻyaqoldi. Ketayotganida ortidan kuzatib chiqdim. Darvoza oldida meni mahkam bagʻriga bosdi va ketdi... Ortidan qarab turdim, bir marta qayrilib boqmadi, orqasiga qaramay ketdi, keeetdi... Hazilkash, quvnoq edi. Hamma vaqt kulib, kuldirib xayrlashardi. Oʻsha kuni kulmadi, orqasiga qaramay ketayotgani koʻz oʻngimda qoldi. Koʻproq shu holi, menga yana bir qayrilib boqmay ketganini eslayman. Tushlarimda ham shu holini koʻraman.

Zarabogʻdagi qabristonga (Sherobod tumani), bobolarining yoniga qoʻydik. Besh yil avval

otasi olamdan oʻtdi. Hozir ikkovlari yonma-yon yotibdi”.

Ziyoratiga yetolmaganim ona

Yana bir qahramonimiz, shahidimiz katta leytenant Ismatillo Xodjayev Samarqand viloyati Nurobod tumanining Oqsoy qishlogʻida tugʻilgan edi. Adashmasam, oʻn ikki yilcha avval u tugʻilib oʻsgan xonadon ziyoratiga borgan edim. Samarqanddan Oqsoyga qadar menga hech kim hamroh boʻlmadi, qoʻshilib borishga ragʻbat bildirmadi, u yerlarni bilmas edim. Hatto meni qaytarmoqchi boʻlishdi, “Hozir paxta yigʻim-terimi, borganingiz bilan hech kimni topmaysiz...” Paxtani nima aloqasi bor ekan, deb hayron boʻlganman-u, borish fikridan qaytmaganman va toʻgʻri qilgan ekanman.

Meni qahramonimizning yangisi Nazira Joʻrayeva kutib olgan. Qarang, oʻsha moʻtabar xonadonga borgunimga qadar Ismatilloning onasi olamdan oʻtganini eshitmagan ekanman. Nazira opaning aytishiga qaraganda, Ismatillo halok boʻlganidan keyin onasi xonanishin boʻlib qolgan, qahramonni

“Oradan ancha yil oʻtdi. Vaqt hamma dardning davosi deydi. Biroq farzand dogʻining davosi yoʻq ekan. Doniyor degan joyda toʻkilaman... U mening toʻngʻichim edi... Hech kimga oʻxshamagan, benihoya mehribon, gʻayratli, tadbirli edi. Men hayotdan, qiyinchiliklardan hech qachon noligan emasman. Pastakkina, zax uyda turardik. Kelin boʻlib tushgan xonadonimning bor-yoʻgʻiga qanoat qilib yashardim. Mehnat menga malol kelmagan. Bolalarimning otasi traktorchi qildirdi. Birin-ketin farzandlarimning tugʻilishini baxt deb bildim. Doniyor... bolaligidan menga mehribon boʻldi. Oʻn bir yoshidan boshlab oilaga yordami tega boshlagan. Orzulari koʻp edi: “Manavi uylarda yashashingizni istamayman. Zax odamni kasal qiladi. Oʻzim sizga chiroyli, baland qilib uylar qurib beraman. Biroz katta boʻlganimdan keyin esa umuman sizni ishlatgani qoʻymayman”, derdi. Odamlarni yaxshi koʻrardi, uni ham yaxshi koʻrardilar, oshna-ogʻaynilari koʻp edi. Doniyor... bolam... toʻngʻichim... mittigina goʻdagim menga dunyolarni vaʼda qilardi, umidim, suyangan togʻim edi. Yangi uylar qurdik, Doniyorning maoshiga. Kelin

Kaklik koʻzli bolaning onasi

Vatan uchun aziz jonidan kechgan qahramon shahidimiz Ulugʻbek Barnoyevning onasi Sabohat opani hamma-hammaga tanitgim keladi. Men ayolman, onaman, halok boʻlgan farzandi haqida gapirish Ona uchun qanchalar ogʻriqli boʻlishini tushunaman. Ammo undan eshitgim keladi, jasur oʻgʻli haqida koʻproq bilsam, boshqalarga ham bildirsam deymen. Koʻzlariga boqib, opani tinglayman: “Olam oppoq qorga burkanganida u tugʻildi. Shunday chiroyli bola... Koʻzlari kakliknikidek...”

Opa soʻzlayapti, koʻzlaridagi tubsizlikda qoʻlidagi moʻjizaga bosh egib turgan yosh, baxtiyor ayolni koʻraman. Shu baxtni uzoqroq tutib turishni istayman, koʻz yoshlar yopib qoʻymasaydi... Opa dono ayol, matonatli ayol, hech qachon oʻz gʻami bilan boshqalarni ezib qoʻymaydi.

Bu safarlar koʻp ogʻir safarlar edi. Qani edi, qahramon oilasi, ota-onasi ziyoratidan keyin oyogʻing yetgan yerlarda bir ezgu ishlar amalga oshsa.

yoʻqlab keluvchilarning hech birini qabul qilmagan ekan. “Bilmadim, sizni ham qabul qilarmidi, yoʻqmi...”

Oʻylanib qoldim. Oʻshanda aytilgan gaplarni oradan yillar oʻtib hozir ham eslayman. Va har eslaganimda koʻnglimdan shunday oʻy kechadi: “Shahidimizning onasi meni qabul qilar edi. Men erkaklar kabi magʻrur boʻlmas edim, men Vatan uchun aziz jonidan kechgan oʻgʻlonning Onasi poyiga tiz choʻkardim, koʻngil dogʻiga, yaralariga malham boʻladigan soʻzni bir egachi, singil sifatida ayardim. Farzand dogʻida aytgan aytilmalariga qoʻshilar edim... Tojik tilini bilmasam ham ohanglarini yurak-yuragimdan his qilardim. Yoʻq, men erkaklar kabi qahramon jangchining onasi qabul qilmadi, deb ostonadan ortga qaytmasdim...”

Oxiratingiz obod boʻlsin, qahramon jangchining moʻtabar onasi.

Xosiyatxon ayaning toʻngʻichi

Yana bir shahidimiz serijant Doniyorbek Tojiboyevning moʻtabar onasi Xosiyatxon aya Andijon viloyatining Paxtaobod tumanida yashaydi. Onalar bilan suhbatlashish ogʻir. Baxtli damlar xotirasidan koʻngling yorishadi, ayriliqdan aytsa qoʻshilib yigʻlab, tinglaganlarim:

tushirish niyatimiz bor edi... afsus... bolamga bu nasib etmadi. Qizlar chiqardim, ukasi Elyorbekni uylantirdik. Nabiralarimiz bor. Hech narsadan kamchiligim yoʻq. Faqat...”

Uni unutmayman

Qishning izillagan sovuq bir kunida qahramonimiz Elomon Otajonovning onasi Yanglish aya ziyoratiga bordik. Aya bilan ilk marta bir-birimizni koʻrib turgan boʻlsak-da, koʻp yillik qarddonlardek koʻrishdik. Hol-ahvol soʻrashgach, kelishdan maqsadimizni bayon etdim. Opa ogʻir tin oldi. Menga tikilib turgan nigohlarning tub-tubidan farzand dogʻining soʻngsiz azoblari kipriklarga qalqib chiqdi... Oʻzimni aybdordek his qildim. Bir maʼnili soʻz kelmay, tilim ham lol...

Menga yana ham yaqinroq kelib, kaftini chap koʻksiga bosib shunday dedi:

– Uni hamma unutsa ham, men hech qachon unutmayman... uni unutilib boʻlmaydi...

Ha, uni unutilib boʻlmaydi. Ona Oʻzbekiston uchun jonini tikkan oʻgʻlon unut boʻlishi mumkinmi axir?!

Ziyoratlariga yana yoʻling tushsa, tekis yoʻllar, obod koʻchalardan bahri-diling ochilsa, bularning bari qahramonimiz xotirasiga ehtiromimizdan degan eʼtiroflardan gʻurur tuyib, boshing aylaniblar ketsa!

2000-yilda janubiy sarhadlarimizda jangari toʻdalarga qarshi kurashda halok boʻlgan jasur oʻgʻlonlarning qisqa va yorqin hayotlari, shon-sharaf yoʻllari, ibrat maktabi oʻlaroq mangu yashashiga ishonaman. Shunday boʻlsa-da, bor mehrimiz, ehtiromimizni ularni tugʻib voyaga yetkazgan onalari, otalari hayotligida koʻrsataylik. Bugun oʻsha moʻtabar insonlarning hammasi ham oramizda emas. Borlari ham keksayib qoldi. Shunday ekan, bu gʻanimat kunlar qadriga yetib, Vatan uchun aziz jonini qurbon qilgan aziz shahidlarimizning azizlariga muhabbatimizni amalda bildiraylik, buni elga koʻz-koʻz qilaylik, Vatan degan kam boʻlmasligini, hamisha ardoqda boʻlishini shu tarzda boshqalarga ham anglataylik!

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”



BOSHQARUV MAHORATI MUSTAHKAMLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida Mudofaa vazirligi ofitserlari tarkibi uchun "Zamonaviy boshqaruv va boshqaruv mahorati" yo'nalishi bo'yicha navbatdagi o'quv kursi yakunlandi.

72 soatga mo'ljallangan mazkur kurs davomida Qurolli Kuchlarimiz vakillariga malakali professor-o'qituvchilar tomonidan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, boshqaruv psixologiyasi va sotsiologiyasi, dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy jarayonlar, jamoani shakllantirish va muloqot psixologiyasi, boshqaruvda liderlik, inson resurslarini boshqarish kabilar bo'yicha chuqur bilimlar berildi.

Tashkil etilgan o'quv kurslari milliy armiyamiz ofitserlari uchun haqiqiy mahorat maktabi bo'ldi. Endilikda kursni bitirgan 50 nafardan ziyod ofitser tarkibi akademiyada o'zlashtirgan yangi bilimlarini o'z shaxsiy tarkibidagi harbiy xizmatchilarga yetkazadi.

Kursni muvaffaqiyatli bitirgan tinglovchilarga sertifikat topshirish marosimida so'z olgan akademiya rahbariyati hamda Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari tomonidan mazkur bilimlar harbiylarning kelgusi faoliyatida, armiyaning jangovar shayligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega ekani ta'kidlab o'tildi hamda ularning kelgusi faoliyatlariga zafarlar tilandi. Yakunda test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan kurs bitiruvchilariga sertifikatlar topshirildi.

– 10 kun davom etgan mazkur kursda biz ofitserlar tarkibi malakali professor-o'qituvchilar va tajribali sotsiologlar tomonidan berilgan bilimlarni o'zlashtirdik, – deydi Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti boshlig'ining o'rinbosari polkovnik Zokir Burxonov. – Kurs qisqa, ammo yetarli bilim va ko'nikmalarga boy bo'ldi. Endilikda oldimizga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri – bu boshqaruv sohasida faoliyat olib borayotgan ofitserlarning jahon siyosiy maydonida sodir bo'layotgan o'zgarishlardan kelib chiqqan holda boshqaruvning zamonaviy usul va uslublarini, shaxsiy tarkib bilan muloqotning yangicha yondashuvlari bo'yicha egallagan bilimlarimizni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.



Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"

Biz ma'rifatli shaxs tarbiyasida hikmatlarning va maqollarning o'rni mavzusidagi maqolamizda o'sib kelayotgan yoshlarga xalqimizning boy ma'naviy meros bo'lgan hikmatlarni bilish, mazmunini tushunish hayotga tatbiq etish maqsadida shaxsdagi qaysi sifatlarni mukammallashtirish borasida ba'zi zarur nasihatlarini tavsiya qilmoqchimiz.



Hikmatli so'zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu, zamonlararo ko'prikdir. Hikmatli so'zlar noma'lum shoirlarning yurak satrlari, xalq iste'dodining masofa bilmas shu'lalari, zulm, adovat, haqsizlik ko'ksiga sanchiluvchi adolat tig'idir. Hikmatli so'zlar, maqollar hech bir podsho e'lon qilmagan farmon, hech bir Prezident muhrlamagan qonun, hech bir davlat tomonidan bitilmagan konstitutsiyadir.

Har kimki vafo qilsa,
vafo topqusidir,
Har kimki jaf o'qilsa,
jaf topqusidir,
Yaxshi kishi ko'r magay
yomonliq hargiz,
Har kim yomon bo'lsa,
jazo topqusidir.

Hikmatlar... Har kuni har birimiz har kimdan eshitib, har kimga aytib yuradigan had-hisobsiz hikmatlar... Moziydan bizning zamonimizga asrlar osha, avlodlar va ajdodlar osha, ellar va elatlar osha, tillar hamda dillar osha yetib kelgan bu hikmatlar xalq tafakkurining, xalq hayotiy tajribasidan kelib chiqadigan xulosaviy fikrlarning ixcham va ko'rkam bir badiiy ifodasidir. Ularning har biriga butun-butun kitoblarga tatigulik keng va chuqur ma'no, his-tuyg'u jo bo'lgan. Shu bois xalq asrlar davomida yaratgan, sayqal bergan har bir hikmatlarni va maqollarni to'laqonli, yetuk bir badiiy asar, desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Dono fikrni, o'tkir haqiqatni, teran, so'z xazinasining dur-u javohirlarini o'zida mujassam etgan hikmatlar nutqimizning ekspressiya

(ya'ni ta'sir etuvchi, his-hayajon uyg'otuvchi) vositalari orasida eng ta'sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o'ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadir. Ularning kishilik jamiyati va har bir inson hayoti uchun naqadar qimmatli ahamiyatga molik ekanini jahon donishmandlari qadim-qadimdan e'tirof etib, qayta-qayta uqtirib kelgan.

Mana, shunday fikrlarning ayrimlari bilan tanishing: "Barcha kishining kuchi ovqatdandir, aqlning kuchi esa hikmatdandir" (Aristotel); "Agar aqlli bo'lishni istasang, hikmat o'rgangilki, aql bilan kamol topadi" (Kaykovus); "Xalq orasida ko'pchilik tildan qo'ymaydigan so'z aslo o'lmaydi" (Gesiod); "So'zlar – asrga, fikrlar – asrlarga tatiydi" (N. Karamzin); "Qisqa ifodalangan o'tkir fikrlar hayotni yaxshilashga ko'p xizmat qiladi" (Sitseron); "Men qadimgi donishmandlarning... bizga qoldirib ketgan aql durdonalarini ko'zdan kechiraman, agarkin biz ulardan nimadir yaxshi bir narsaga duch kelsak, uni o'zlashtirib olamiz va juda katta foyda orttirgan bo'lamiz" (Sugrot).

"Qadrli zamondosh Vatanningni sevishtir, ardoqlashni har kuni, har soatda esingdan chiqarma. Vatan – bu ona yurt, tug'ilgan joying, ajdodlaring va avlodlaringning makoni. Sen esa ularning munosib avlodlaridirsan. Buyuk yunon olimi, Sharqda "Birinchil muallim" deb ulug'lanadigan Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q", degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Binobarin, hikmatlarda "Vatanni sevmok iymondan"

ekani ta'kidlanadi. Eng yuksak ma'naviy fazilatlarining biri ham Vatanning bo'lgan sadoqatidir. Xalq naqlarida "O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'li!" degan naql mavjud. Hazrat Navoiy aytibdi:

Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranji g'urbat havas aylama.


Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonning strategiyasi" kitobining "Yoshlar Yangi O'zbekistonning bunyodkorlari" qismida: "Meni doimo o'ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala – bu yoshlarning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so'z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog'liq", degan edi. Axloq bu faqat

so'zlashish bilandir. So'zlashish Alloh tomonidan insonga berilgan ulug' ne'mat. Mulohaza yuritadigan inson uchun so'zdan kuchliroq (kezi kelganda qilichdan ham o'tkirroq) narsaning o'zi yo'q. Hazrat Alisher Navoiy aytadi:

So'zdirki, nishon berur
o'likka jondin,
So'zdirki, berar xabar
jong'a jonondin,
Insonni so'z ayladi
juda hayvondin,
Bilkim, guhari sharafrang yo'q ondin.

So'zlashmasang o'tgan kuning qorong'u, hayoting esa mazmunsiz, qalbing yarimta bo'ladi. Bas, shunday ekan, so'zlashishni buyuk ne'mat bilib, uni qadrla! Haqiqatga intilib yashash Vatanga

MA'RIFATLI SHAXS TARBIYASIDA HIKMATLAR O'RNI



tevarak-atrofdagi voqealarni ijobiy qabul qilishgina emas, bu mas'uliyat hamdir.

Demak, sening axloqing – ma'naviy boyliklarningning bir qismi. Axloq insonning turli hayotiy voqealarga, turmush tarziga u yoki bu tomondan bildiriladigan ma'naviy yondashuvlar yig'indisidir. Axloqingni namoyon qiladigan soha – bu sening shirin so'zing. Shirinso'z bo'li! Allomalardan biri:

Yaxshi so'zdan ko'rsan,
mehr-u vafo,
Nomunosib so'zlasang, yetgay jaf o,

deya bejiz aytmagan.

Vatanga muhabbatning eng zarur belgisi – mardlik. Chunki barcha hayot qiyinchiliklarini mardlik yengadi, hayotingni yengillashtiradi. U inson oilasiga, jamoasiga, mamlakatiga shon-sharaf keltiradi. Qo'rqqoqlik qilsang, qoqilas. Mardlik bu inson qalbidagi jasorat jarayoni va natijasi bilan uyg'unlashgan faoliyatdir. Bu faoliyatni o'zingda mujassamlashtir. O'shanda sendan faxrlanib, g'ururlanadilar. Mardlik bu faqat jang maydonidagi jasurlik emas. Mardlik ko'rsatishni har qadamda, umrning har lahzasida amalga oshirish mumkin.

Vatanparvarlikni tushunishda so'zning qudrati katta ma'noga ega. Chunki hayotning lazzati

muhabbatning ajralmas qismidir. Hayotga keldingmi, endi haqiqatga intilish uchun senda hamma imkon bor. Lekin unga osonlikcha erishaman, deb o'ylama. Haqiqatga intilish insonning o'z faoliyatining to'g'riligini nazariy, amaliy dalillar asosida tasdiqlashga harakat qilishdir.

Jismonan va ruhan barhayot yashayman desang, haqiqatga bo'li! Hayoting davrida o'rtoqlaring, qavm-u qarindoshlaring oldida haqiqatchilik sinovidan o'tgan bo'lsang, haqiqat g'alaba qozongan bo'ladi, barhayot bo'lasan, mangu yashash uchun zamin yaratgansan. Bilib qo'yginki, senga halollik shuhrat keltiradi. Halollik bilan umr ko'rganlar o'z umrlariga achinmaydi, ularni ko'p insonlar hamisha yaxshi so'z bilan eslaydi. Halol kishilar tirikligidayoq o'zlariga haykal qo'yadi.

O'zingning shaxsiy halolligingni boshqalar manfaati bilan uyg'unlasang, qoqilmaysan. Donishmandlardan biri aytadiki: "Uzoq sharmandali umrdan ko'ra,

qisqa, halol umrni ko'r". Halollik bozorda sotilmaydi. U inson tomonidan ma'naviy xislat sifatida yaratiladi, u ko'zga ko'rinmas his-tuyg'udir.

*Olamni insonlar, tashkil qilarlar,
Turlicha yashashib, doim o'tarlar.*

*Ularning barchasin,
halol deyishlik,
Afsuski bilgilki, xatolar bo'lar.*

Ma'lumki, inson bo'lib shakllanish jarayonida do'stlikning qudrati, insonlar qalbidagi xayrixohlik va baxtiyorlik xislatlarini topa bilish do'stlikning boshlanishidir. Do'stlik insonlarni birlashtirish quroli ham. Do'stlikni o'zaro hurmat chiniqtiradi. Do'sting bilan me'yoridan ortiq hazillashma, orada ozroq masofa qolsin! Sababi mabodo ushbu sohada qalbing torlari uzilar ekan, u temir emas, qaytadan payvandlab qo'ysang, uni tiklashga urinma, harakating behuda ketadi, bu iz yo'qolmaydi. Yaxshisi qalb torlarini uzmaslikka intiling!

Kaykovus bobomizning ushbu hikmatini dastur qil:

"Yangi do'st ortirsang, eskisidan yuz o'girma",

yoki mavlono Abdurahmon Jomiy fikriga diqqatingni qarat:

*Yaqin do'sting senga yomon istasa,
Undan yuz o'gir yo bardoshla so'zla,
U bilan olishma, so'kma tortishma,
Shunda yarashish yo'lini izla.*

Do'stlikning poydevori sadoqatlilik. Sadoqatlilik bu o'zgalar turmush tarzining yaxshi bo'lishiga mehr qo'yib, ular mehriga sodiq qolish, ko'maklashishdir.



Ta'kidlash lozimki, farzand insonlar va insoniyat uchun tarbiyalanmas ekan, uning xislati maxluq sifatidan uzoq emas. Farzanding tarbiyasida undagi keraksiz sifatlar yo'q qilinib, o'rniga insoniy xislatlar singdirilmasa, mehnat bekor ketganidan dalolat. Unutmagilki, farzanding qiyofasida kelajakdagi sarkarda, shoir yoki faylasuf, davlat arbobini aslo ko'rma, unda, birinchi navbatda, haqiqiy yuksak ma'naviyatli insonni ko'rgin.

Shuningdek, yaxshi xulq, yaxshi odob, insonning yuksak fazilatlaridan biri hisoblanadi. Demak, o'zni tuta bilish ham shunday xususiyatlardandir. Insoniylik shiddatda emas, sokinlikda. Ishongilki, o'zni tuta bilish yuqorida ta'kid etganimdek, vaziyatga bog'liq. Vaziyatni fahmlay olishing aqlingga bog'liq. Aqlning o'tkirligi, zehning borligi, sening mehnatiga bog'liq, mehnat qilmasang, bu xislatlaring jonsiz modda bo'lib qolaveradi. Vaziyatni to'g'ri baholay olish donishmandlik belgisi. Fe'l-atvorning sokinligi buyuk aqliy kuchning belgisi. Bu belgiga amal qila olsang, yutuqlaring bisyordir. Sokinlik ehtiyotkorlik bilan bog'liq. Ehtiyotkorlik, sovuqqonlik, sokinlik – o'zni tuta bilmaslikning dushmani.

"Tarbiyachining eng qudratli tayanchi ham, orombaxsh yostig'i ham uning pokiza vijdonidir", degan edi mashhur pedagog Rahimjon Usmonov. Munosib shaxs bo'lib yetishishimizda shaxsiy manfaatni to'g'ri tushunish benihoya zarur hisoblanadi. Inson paydo bo'libdiki, u shaxsiy manfaatsiz kun kechira olmaydi. Lekin birovlar shaxsiy manfaatni taqdirga bog'lab berganiga shukur qilsalar, birovlar harakat qilib, shaxsiy manfaatlarini tezroq qondiradi. Bu yo'lda birovlar o'g'rilik qilsa, birov to'g'rilik bilan manfaatdor bo'ladi. Sen o'ylab ko'rsang, shaxsiy manfaatning qirralari behisob. Inson aqlini tanishi bilan yaxshi kiyingisi, barchaga namuna, go'zal, chiroyli, baquvvat, bilimdon, dono, davlatmand, mansab egasi bo'lgisi keladi, farzandlar, nabiralar, evara-chevaralar bilan uzoq umr ko'rgisi va hokazolarga intiladi.

Mavlono Abdurahmon Jomiy ta'kidlaganidek: "Hozir bir ish qilki, undan elga yetsin manfaat, oxirida u ishing keltirsin rahmat", "Harki yaxshilik qilsang, qilki yurt uchun, o'zingdan ortiqroq o'zgaga bermoq uchun".

Umringizning boqiy bo'lishi o'zingizga bog'liq. Barhayotlik insonning asrlar davomida insonlar qalbidan mustahkam o'rin olishidir. Bunday insonlar har bir millatda va elat, urug', qabila, jamoada topiladi. Ular o'z vaqtida mehnatlari orqali turli sohalarni o'zlarida mujassamlashtirib, ularni rivojlantirgan, ma'lum sohalarda – fanda, san'atda, adabiyotda, dinda, davlat boshqaruvida, hunarmandchilikda, donolikda o'zgartirishlar kiritganlar, hayratda qoladigan ishlarni amalga oshirgan va o'z barhayotligini ta'minlagan.

Avvalo, mehribon inson bo'l. Mehribonlikda juda ko'p insoniy fazilatlar yashirinib yotadi, sen ularga loqayd bo'lmasang, yuksak ma'naviyat egasi sifatida barhayotlikning mustahkam poydevorini qo'ygan bo'lasan. Namunali farzand tarbiyalasang, ota va onangni e'zozlasang, Vatan tuprog'ini qadrlasang, ko'plar uchun beg'araz mehnat qilsang, ta'magir yoki poraxo'r bo'lmasang, mansabparastlik va shuhratparastlik illatlarini tushunsang, ma'lum bir sohaning haqiqiy ustasi bo'lsang, bular sening kelajakdagi barhayotligingni ta'minlaydi. "Bo'lak yaxshi nom istama, shul yetar. Seni yaxshi odam desa el agar", degan edi Sa'diy.

Ma'rifatli shaxsni voyaga yetkazishda kitobning o'rni beqiyos. Kitob – bu insonlar ongiga ta'sir etib, uni turli jihatdan rivojlantiradigan, aql va faoliyatni boyitadigan ma'naviy manba. Kitob to'g'risida o'z fikrini bildirmagan ziyoli inson bo'lmasa kerak.

O'zbekiston Respublikasining qahramoni, yirik adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov ta'kidlaganidek: "Ma'rifatli odam uchun o'z xalqining kitobga jo qilgan ijod durdonalaridan ko'ra qimmatliroq boylik bo'lmaydi". Kitob ham oyog'ing, ham qo'ling, ko'zing, ham qulog'ingdir. Kitob bebaho xazina. Kitob ajdodlaring o'tmishidir. O'tmishni anglay olsang, kelajagingni rejalashtirasani, u senga yorug' yulduz. Unutmagilki, kitob allomalar fikricha, yolg'izlikdan saqlaydi, kitobning o'zi jonsiz bo'lsa ham fikrlari jonli. U seni hayajonga soladi, tashvishlaringni yengil qiladi. Kitobni ko'p o'quvchilarga havas bilan qara, hasad qilma.

Buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy ta'kidlaganidek:

Kitobdan yaxshiroq do'st

yo'q jahonda,

G'amxo'ring bo'lg'ay u

g'amli zamonda,

U bilan qol tanho,

hech bermas ozor,

Joningg'a yuz rohat beradi takror.

Bilimdonlar so'zi bordir bu bobda,

"Bilimdon go'rda-yu, ilmi kitobda!"

Agar yolg'iz ersang hamdam kitobdir,

Bilim subhidagi nur kitobdir.

Inson uchun hayotingdagi eng noyob xususiyatlaringdan biri bu o'z salomatligingdir. Unga e'tibor va ehtiyotkorliging senga bog'liq. Sog'lig'ingga e'tibor nafaqat o'zing uchun, balki oilang va davlating uchun ham zarur. Sog'liq bu insonning tashqi va ichki

ta'sirlardan jismoniy ruhiy ezilmasdan, unga berilmasdan, o'zini o'zi bir butun, yaxshi kayfiyat va jismonan tetik tutishga rioya qilishidir.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Sihat-salomatlik har bir inson, butun aholimiz uchun hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan buyuk ne'matdir. Faqat sog'lom inson va sog'lom xalq mislsiz ishlarga qodirligini hammamiz yaxshi anglaymiz", degan edi. Sog'liq to'g'risida insonlar azaldan o'lmas fikrlarni aytib kelgan. Agar sen yoshlik yillaringda sog'lig'ingni asrab avaylasang, yoshing ulg'ayganda, haqiqiy baxtingni topasan. Sog'liq barcha noz-ne'matlar ichida eng buyugi. Odamlar sog'liqni baxt deb ham ataydi.


Bu to'g'risida alloma Sitseronda shunday fikrlar bor: "Kishining kuchdan qolishini yemiruvchi yillar emas, ko'pincha yoshlikning asov g'alayonlari oqibati. Bebosh va sayoq yoshlik keksalikka shalviragan tanani hadya etadi". Nemis olimi Artur Shopengauerning so'zlariga e'tiboringni qarat: "Sog'liq hayotning shunday ne'matidirki, chindan ham betob podshodan sog'lom gado ming karra baxtiyordir".

Buyuk ajdodimiz Imom Motrudiy hazratlarining "Tiriklik hikmatini sog'liqda, deb bilish", degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar to'g'ri ekanini hayotning o'zi bugun qayta-qayta isbotlamoqda. Ma'rifatli shaxsning shakllanishida o'zidan nom qoldirish ham eng muhim fazilatlaridan hisoblanadi.

Insonlar nazarida ota-onang, qavm-u qarindoshlaringning hurmatini joyiga qo'ysang, mahallangdagi to'y-hasham, marosimlarda yolg'on so'zlardan yiroq bo'lsang, birovlariga ovozingni ko'tarib jahl bilan gapirmasang, birovlarining og'ir musibatlariga duchor bo'lganda ko'nglini ko'tarsang, qo'lingdan kelgan oddiy, samimiy yaxshiliklarni o'rnida qo'ysang, (va hokazo) o'ylayver, sen insonlar o'rtasida yaxshi nom qoldiryapsan.

Sharq allomasi Sa'diyning: "Yomon ham o'tar, yaxshi ham – yaxshi bil, seni yaxshi nom birla yod etsin el", degan fikrini o'yla va unga amal qil, azizim. Xulosa shundan iboratki, bugungi kunda ma'rifatli shaxsni tarbiyalashda xalq hikmatlari eng muhim hal qiluvchi rol ni o'ynaydi.

Ishqobil XOLIQOV,
tarix fanlari doktori, professor



O'zlikni anglash omili

Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar mustaqil taraqqiyot va yuksalishning muhim omili hisoblanadi. Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar har bir xalqning o'tmishi, ajdodlari tomonidan yaratilgan va avlodlari qadrlaydigan, uzoq yillar davomida shakllangan, tarix sinovlaridan o'tgan hamda sayqallanib kelgan ma'naviy boylikdir. Unda xalqning maqsad va intilishlari, orzu-umidlari, hayotiy falsafasi, ijtimoiy axloq normalari o'z ifodasini topadi.



mushohadalarini boshlab bergan. Nemis klassik falsafasi vakili G. Gegel qarashlarida o'zgarish tushunchasi nisbatan

Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar ayni paytda xalqning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadigan, o'zligini anglash omilidir. Unga munosabat ikki xil bo'lishi mumkin. Bu milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni hurmat qilish hamda uni asrab-avaylash mas'uliyati yoki turli ijtimoiy-siyosiy sabablar tufayli undan begonalashish holati bo'lishi mumkin.

Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar xalqning taraqqiyot yo'liga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Undan uzoqlashish xalqning mustaqil taraqqiyot yo'lida rivojlanishini emas, ayrim davlatlar yoki xalqlar ta'siriga tushib qolish holatini vujudga keltiradi. Natijada milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga tayanish mamlakat xalqlarining o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lidan borishini ta'minlash, aksincha holatda esa uning rivojlanish yo'li o'z negiziga mos holda amalga oshmaydi. Shuning uchun mamlakatimiz tarixida, ajdodlar merosida bu masalaga alohida e'tibor berilgan va uni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan global o'zgarishlar davrida milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga nisbatan qarash bir

xil emas. Hatto olimlar va ayrim yoshlar qarashlarida "ma'naviy meros", "milliy qadriyatlar" hamda "ma'naviyat"ni tushunish turlicha bo'lib qolmoqda. Kimdir ma'naviy merosning O'zbekiston jamiyati taraqqiyotidagi ta'sirini e'tirof etsa, kimdir ma'naviy qadriyatlarga inson erkinligi, huquq va manfaatlarini chekllovchi omil sifatida talqin etadi.

Ko'p hollarda ma'naviyatni keksa avlod tomonidan yoshlar ongi hamda tafakkuriga, hayot tarziga zo'rlab kiritilayotgan ma'naviy meros ko'rinishi sifatida tushuntirishga bo'lgan urinish holatlari kuzatiladi. Bunday yondashuvlar bahsli va uning yutuq yoki kamchiliklarini qiyosan tahlil etish hamda turli oqibatlarini hisobga olgan holda yondashish ehtiyoji mavjud. Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar har bir xalqning hayoti, turmush hamda tafakkur tarzi bilan bog'liq hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ayni paytda hayot o'zgarishlari uning dinamikasi bilan bog'liq holda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga ham o'zining ta'sirini ko'rsatishi tabiiy. Bu holatda ana shu o'zgarishlarni hisobga olgan holda qarashlar va yondashuvlarni muvofiqlashtirib borish zarur. Bu milliy ma'naviy merosga bo'lgan munosabatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ayrim ixtilofli holatlarning

oldini oladi va jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlaydi.

Qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar undagi barqarorlikka tahdid solmaydigan o'zgarishlarni nazarda tutadi. Aks holda, jamiyat taraqqiyotida o'ziga xos beqarorlik holatlari sodir bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Buning uchun mamlakatda inson ongi va tafakkuri hamda dunyoqarashida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan, dunyo xalqlari erishayotgan yangiliklar, yutuqlar bilan bog'liq holda qabul qilish madaniyatiga ega bo'lish strategik ahamiyatga ega. "Falsafa" qomusiy lug'atida "O'zgarish – barcha obyektlar va hodisalar eng umumiy xususiyati; har qanday harakat va o'zaro ta'sirni, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ifodalaydi", deb ta'riflanadi.

Qadimgi yunon faylasufi Geraklit hamma narsa doimiy o'zgarishda bo'ladi deb ushbu falsafiy kategoriya ustida mutafakkirlar va olimlarning

mushohadalarini boshlab bergan. Nemis klassik falsafasi vakili G. Gegel qarashlarida o'zgarish tushunchasi nisbatan

batafsil tavsiflangan. O'zgarishning shakllanish, boshqa borliqqa o'tish, miqdorning ekstensiv va intensiv o'zgarishi, predmetning sifat hamda miqdor birligining o'zgarishi shakllarini ishlab chiqadi. O'zgarish tushunchasining zamonaviy talqinlarida bu tushuncha "narsa va hodisalarning harakati, o'zaro ta'sirlashuvi, bir holatdan boshqasiga o'tishi, yangi xususiyat, funksiya hamda munosabatning yuzaga kelishi" sifatida ta'riflanadi. Bu jamiyatdagi har bir qatlam zimmasiga o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi. Shuning uchun qadriyatlarga negativ hodisa sifatida qarash bir tomonlama xarakterga ega, unga xolisona baho berish muhimdir.

Milliy ma'naviy merosni tiklash masalasi mustaqil O'zbekistonda barqaror taraqqiyotni ta'minlashning muhim shartidir. O'tgan yillar davomida xalqimiz ongi va tafakkurida milliy ma'naviy meros hamda qadriyatlar tushunchasi bilan bog'liq turli urf-odatlar va an'analar tiklandiki, bu mamlakatimizning taraqqiyotida ijobiy samarasini ko'rsatdi. Lekin uning ahamiyatini baholashda hammada ham bir xil qarash mavjud emasligini, unga ta'sir etuvchi omillarni nazarda tutish lozim. Bunda quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

birinchidan, globallashtirish omili milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni o'ziga xos sinovdan o'tkazmoqda hamda ayrimlar nazarida ular boshqa xalqlar madaniy merosiga nisbatan orqada qolgan madaniyat ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda;

ikkinchidan, ayrim yoshlarda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga nisbatan befarqlik kayfiyati ustun;

uchinchidan, milliy ma'naviy meros zamon o'zgarishlari hamda talablaridan orqada qolish holatlari bilan aloqador. Bu ko'proq milliy qadriyatlardagi turg'unlik, yangiliklarni tushunmaslik yoki uni qabul qilmaslik, dunyo miqyosida turli madaniyatlar jozibadorligining oshib borayotgani bilan ayrim yoshlarda milliy madaniyatiga bo'lgan sodda va jo'n qarash, uni to'g'ri baholamaslik holatlariga ham duch kelinmoqda.

Milliy ma'naviy meros va qadriyatlar turli xalqlar madaniyatidan alohida yashay olmaydi, aksincha ular bir-biri bilan uzviy bog'liq va o'zaro ta'sir ko'rsatish resursiga ega bo'lgan o'ziga xos aloqadorlik qonuniyati bilan izohlanadi. Bunday uzviy bog'liqlikni tushunish global hamkorlik qonuniyatini e'tirof etishni taqozo etadi. Shuning uchun milliy ma'naviy meros va qadriyatlar targ'iboti zamon taraqqiyoti talablaridan orqada qolmasligi muhim. Aks holda boshqa xalqlarga xos bo'lgan ayrim pozitiv yoki negativ ko'rinishdagi madaniyat namunalari andaza qilib olish hamda o'zlikni anglashga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan yondashganda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarda yoshlar masalasi o'ziga xos hal qiluvchi kuch hisoblanadi. Bunda quyidagi uch holatni kuzatish mumkin: birinchidan, zamon bilan hamnafas, ikkinchidan, har bir xalqning umummilliy madaniyat yutuqlari va yangiliklaridan xabardor bo'lish tarbiyadagi salbiy holatlarga chek qo'yish, uni ham milliy, ham umuminsoniy hodisa ekanini tushunishga yordam beradi. Shu ma'noda u uzluksiz ravishda yangilanib va yuksalib borishi lozim. Bu milliy ma'naviy meros va qadriyatlarga nisbatan ijodiy yondashish hamda taraqqiyotga ta'sir ko'rsatishidan kelib chiqqan holda, ong va tafakkurdagi o'zgarishlar, o'zaro munosabatlar turli avlodlar o'rtasida farq qilishi mumkinligini hisobga olgan holda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy ma'naviy meros va qadriyatlar jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri bo'lib qoladi. Ta'minlovchi muhim omildir. Bugungi global o'zgarishlar sodir bo'layotgan dunyoda milliy ma'naviy meros va qadriyatlarni asrab-avaylash har xil g'oyaviy va mafkuraviy kurashlarning oldini olishga qodir bo'lgan axborot makonini yaratishni taqozo etadi.

Ibodulla ERGASHEV,
O'zbekiston Milliy universiteti
professori, siyosiy fanlar doktori.
Barhayotjon ABDULLAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti
tayanch doktoranti

ADABIYOT MUALLIMI



Qo'ng'iroq chalindi. O'quvchilar istamaygina xonaga kirib kelishdi. Biroz muddat o'tib, kirib kelgan o'qituvchiga bolalarning yarmi salom berdi, yarmi o'rnidan ham turmadi. O'qituvchi avval xonaga, derazaga va o'quvchilarga razm soldi. O'tirdi. "Xo'o'shsh, bugun kim navbatchi? Nega doskadagi yozuv o'chirilmagan? Qani, tez bittang chiqib o'chir-chi!" Kimdir zo'rg'a o'rnidan turdi. Doskani artadi. O'qituvchi esnab, nimalarnidir titkiladi. Ruchkasini peshonasiga nuqib, yo'qlama qildi. O'quvchilarning yarmi yo'q. "O'tgan darsda qanday mavzuni o'tgandik? Qani, kim javob beradi? Kim? Iye, hech kim yo'qmi? Essiz, bekorga ketgan vaqtim. Demak, tartib bilan chaqiramiz..."

O'quvchilar navbatma-navbat o'rnidan turishdi. Darsga hech kim tayyor emasdi. "Birinchi, Abdulla Qodiriy emas, Abdulla Qahhor ijodini o'tgandik. Senlar Qodiriy bilan Qahhorni ajratib olmasalaring!.. Ikkinchi, to'xta, Xursandov, ko'ylagingni shimning ichiga tiqi! Hoy, Beknazarov, nega telefonni o'chirib qo'yamaysan! Senlar odam bo'lmayсанlar."

Mana, sizga adabiyot o'qituvchisining bolalarga munosabati. Nega darsda ko'pchilik o'quvchi yo'q? Chunki ular adabiyot darsidan qoniqmaydi. Nega bolalar darsga tayyor emas? Chunki o'qituvchi darsni esda qoladigan qilib o'tmagan.

Yo'q! Menga u adabiyot o'qituvchisi dars o'tmagan. Faqat uni taniyman. Ha, uni siz ham taniysiz. Bir eslab ko'ring, kim ekan u? Axir ulami unutib bo'ladimi? Men hozir boshqa bir adabiyot o'qituvchisi haqida gapirmoqchiman. Siz uni ham taniysiz. Ha, siz uni sevasiz...

Har millatning shon-shavkatini, o'lmas qadriyatini belgilab beradigan shunday mezon bor – bu adabiyot. Adabiyot dunyo xalqlarida mamlakat, millat nomidan so'zlaydi. Shu o'rinda mamlakatimiz rahbarining "Adabiyot masalasi – bu ma'naviyat masalasi" deya qayg'urganini alohida ta'kidlash joiz. Odatda endigina she'r yoza boshlagan o'spirin yoki qizaloq uyatchan bo'ladi. Ayni shu lahzada bir insonning, adabiyot o'qituvchisining yordami kerak bo'ladi. Iste'dod o'z vaqtida qo'llab-quvvatlansa, yo'nalish to'g'ri belgilab berilsa yuzaga chiqadi. Bu vazifani esa faqat o'qituvchigina bajaradi.

Bir ijodkor do'stim aytib bergandi: "Maktabda yozuvchilar bilan uchrashuv bo'ldi. Odatda bunday tadbirlar jo'shqin,

qizg'in bahs-munozaralarga boy o'tardi. Bu uchrashuvda esa qatnashchilarga biror o'quvchi savol bermadi. Yozuvchilarimiz "O'quvchilar hali hayajonlarini bosib olishmabdi", degan mulohazaga borib, qiziq voqealarni aytib bersa-da, hech narsa o'zgarmadi. Bir mahal adabiyot o'qituvchisi:

– Hozir o'quvchilarimiz o'qiydigan asarlar bosilmayapti, – deb qoldi.

Men uning boshqa gapini eshitmadim. U go'yoki o'quvchilar savol bermayotganiga yaxshi kitoblar kamligini ro'kach qilib, o'zini oqlayotgandek edi.

Aslida adabiyot o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak? Avvalo, uning har bir so'zida, fikrida chuqur ma'no, go'zallik ufurib turmog'i lozim emasmi?! Axir u bolalarga orzu qilishni, savol berishni va eng muhimi kitob o'qishni o'rgatadi. Orzu qilindimi, u qachonlardir amalga oshadi. Savol berildimi, javob topiladi. Bolaga kitob o'qi deyish, matnni yodlatish bilan o'quvchi kitobxon bo'lib qolmaydi. Biz odatda keng va chuqur mushohada yuritadigan odamlarga havas qilamiz. Biz havas qilayotgan o'sha odamning tafakkuri bolaligidanoq shakllanishiga adabiyot o'qituvchisi sabab bo'ladi.

Eng baland tog' – Himolay. Eng uzun tog' tizmasi – And. Eng uzun daryo – Nil. Eng suvi ko'p daryo – Amazonka. Eng katta ummon – Tinch okeani. Eng uzun... eng uzun tun – yaldo kechasi. Bir kechada, bir necha ertak qahramonlarini "murod maqsadiga" yetkazish mumkin. Bir tunning o'zida "Alpomish"ni o'qib tugatish mumkin.

Toshkentdan uyga borganimda dastlab adabiyot o'qituvchisi bilan uchrashdim. Suhbatlashib o'tirdik. Gap mavzusi yana adabiyotga ko'chdi. O'qituvchim menga shunday savol berdi:

– To'ra Sulaymonning "Chaman ichinda bir gul, gul bir yon, chaman bir yon", deb boshlanadigan go'zal bir she'ri bor. O'sha she'rning yakuni "Go'ro'g'li sulton bir yon, To'ra Sulaymon bir yon", satrlari bilan tugaydi. Nega muallif Go'ro'g'li sultonga ishora qilgan? Alpomishga emas, Rustamga emas, nega aynan Go'ro'g'liga?

Men bu savol qarshisida tilsiz qolaman. Xayolan javob izlab o'qigan kitoblarim oralab kezaman.

Adabiyot darsi. Maqsud Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasini muhokama qilyapmiz. Xona jimjit. Yurak urishini eshitsa bo'ladi. Nafas olishga qo'rqamiz. Bexosdan qilich ovozi va shu bilan birga orqa partadagi bir qizning piq-piq yig'lagani eshitiladi. Yig'i asta-sekin boshqalarga ham ko'chadi. Bolalarning qo'lini musht qilib xo'rsingani uzoq vaqt eshilib turadi. Nega axir? Inson o'z otasiniyam o'ldiradimi? Yuragimizda, tiniq tafakkurimizda bu savol chuqur ildiz otadi. Abdulatifni yomon ko'rib qolamiz.

– Demak, keyingi darsda asarni qahramonlarga bo'linib o'qiyamiz, sahna ko'rinishi tayyorlaymiz. Bu ham tez yodlanadi, ham uzoq vaqt xotirada qoladi.

Hammamiz Ulug'bekni tanlaymiz. Abdulatfiga nafratimizning chegarasi yo'q. Rahmonberdi muallim nazarimda xiyla kengayib ketgan xonaga teran nigoh tashlaydi.

– Abdulatif, Abbos kabi qahramonlardan ham yaxshilik axtaring...

Biz angrayib qolamiz. Nahotki o'z otasini o'ldirgan padarkush

qahramonidan ezgulik axtarsak? Muallim nimalar deydapti?

– O'ylab ko'ring! Abdulatif yosh bola bo'lganida Ulug'bek tizzasiga olib o'tirmaganmidi? Bolaning shirin erkalanishiga otaning bor quvonchi esh bo'lmaganmidi? Ota-bolaning shu holatini ko'z o'ngingizga keltirsangiz – Abdulatif beozor bolaga aylanadi-qoladi. Men Abdulatifni oqlamoqchi emasman. Faqat salbiy qahramonlarning holatini tushunishga harakat qiling, demoqchiman xolos.

Men Ulug'bek bo'laman. Bunga she'r yozishni yaxshi ko'rishim sabab. Orqa partada o'tirib yig'lagan Munisaning Feruza bo'lishini juda-juda xohlayman. Muallim dilimdagini sezgandek deydi:

– Munisa, sen – Feruza bo'lasan.

Nurali – Ali Qushchi, Hamid – Abbos, Usmon – Abdulatif.

... Keyingi dars. O'sha asrga, o'sha asrni yig'latgan qora tunga kirib boramiz. Shamdonlar, fisq-u fasodga to'la saroy. Va olis kelajakka nurli yo'l bo'lib turgan kitoblar, osmon to'la yulduzlar... Va nihoyat, meni – Ulug'bekni "o'ldirishadi". Feruzaning ko'z yoshlari...

Boshqa bir darsda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan Otabek va Kumushbibining bir-biriga yozgan maktublarini o'qiyamiz. Bu gal Munisa – Kumush, Otabek – Hamid... Men esa hech kim.

Mirtemirning "Surat" dostonini yoddan bilaman. Boshidan oxirigacha aytaman. Men – Toshlonman, xiyonatkor Oysuluv – Munisa. U yana orqa partada o'tirar, lekin bu safar yig'lamasdi...

Rahmonberdi Tursunov. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida tog'li Sangardakdagi 16-maktabning adabiyot o'qituvchisi.

Bizning adabiyot o'qituvchimiz...

U bizga salbiy qahramonlarni tushunishni o'rgatgan ustoz...

Uning dars o'tish uslubi boshqacha edi. Yuqorida aytganimdek, qanaqa asar bo'lmasin, avval o'qib, keyin qahramonlarga bo'linib ketardik. Bir gal muallimimiz "Kecha va kunduz"ning yozilmagan davomi "Kunduz"ni yozishni bizga mustaqil topshiriq qilib berdi.

– Shunchaki dilingizdan kechayotgan tuyg'ularni yozing, istasangiz, yana qahramonlar qo'shing!

Birinchi navbatda, O'lmas bilan Zebini Sibirdan qaytaramiz. Yolg'iz otning changi chiqmas, deganlaridek, Razzoq so'figa bitta aka topamiz. Ismi – Umrzoq. Qishloqda dehqonchilik qiladi. Ukasini tushida ko'rgach, izlab keladi va qishloqqa olib ketadi. Davolaydi. Bu orada Miryoyub jadidchilik harakatini boshlab yuboradi. So'fi Zebini shu yerda ko'radi...

Yozamiz. Maqtoq, gohida tanbeh eshitamiz. Yana yozaveramiz, daftarlar to'lib ketaveradi...

Ehtimol, men hozir aytmoqchi bo'lgan gap kimgadir yoqmas, kimningdir ensasini qotirar. Albatta, bu mening shaxsiy fikrim. Gapning indallosi shuki, bugun qaysi maktabdan shoir chiqmayotgan bo'lsa, demak, o'sha maktabning adabiyot o'qituvchisi yo'q. Bo'lsayam – diplomda adabiyotchi. "Hozir yoshlar kitob o'qimay qo'ydi!" degan gaplar tez-tez quloqqa chalinib turadi. Xalqimizda bir gap bor: bola boshdan... Demak, adabiyot o'qituvchisi qayerdadir xatolikka yo'l qo'ygan. Demak, yana sabab o'qituvchining mas'uliyatida. Biz

ertaklar, matallar, dostonlar og'ushida ulg'ayganmiz. Qahramonlar makoni bo'lgan o'sha ertaklar bizni kitoblarga oshno tutishgan. O'sha ertaklarga ergashib kitob bilan, adabiyot o'qituvchisi bilan ko'ngildosh bo'lganmiz.

Demak, adabiyot darslarida ertak, dostonlardan keng foydalanishimiz kerak. U iqtisodchimi, uchuvchimi, quruvchimi, qaysi kasbni tanlashidan qat'i nazar, birinchi navbatda, kitob bilan, adabiyot o'qituvchisi bilan yaqin bo'lishi kerak. Adabiyot o'qituvchisi – har bir bolaning ko'nglida ezgulik uyg'otadigan eng birinchi inson. Uning kamol toptiradigan kasbi shuning uchun ham mas'uliyatli, zahmatli va sharaflidir. U shuning uchun ham adabiyot o'qituvchisi, shuning uchun hayot o'qituvchisi, orzu o'qituvchisi. Men unutolmaydigan bir voqea bor. O'sha voqea butun hayotimni o'zgartirib yubordi.

Maktabni tugatgan yilim ota-onam aniq fanlarga asoslangan o'qishga borishimni xohladi. Orzu orzuligicha qolib ketadigan bo'ldi. Erta-indin ketaman deb turganimda, adabiyot o'qituvchisi bir chimdib ko'zimni ochib qo'ydi:

– Olov yoqay desam, o'tin tamom bo'pti. Senda qog'oz ko'p. She'riy daftarlaringni ber. Ha, she'ring chiqqan gazetalarniyam.

– She'rlarimni? Ular o'zimga kerak...

– Ularning endi senga keragi yo'q. – dedi kinoya aralash, – sen boshqa sohani tanlading!

Bo'ldi. U boshqa gapirmadi. Indamay ketdi. Men jim qolaverdim. Otamning ra'yiga qarshi chiqib, o'sha yili o'qishga bormadim. Otam keyingi yili ham yumshamadi, ammo men yozishdan, orzu qilishdan to'xtamadim. Baribir o'zim orzu qilgan Jurnalistika fakultetiga hujjatlarimni topshirdim.

Yo'lchi bir qadam bo'lsayam yurgani yaxshi! Men bugun yo'ldaman. Har qadamda bir insonning, menga orzu qilishni, savol berishni, umuman, yashashni o'rgatgan adabiyot o'qituvchisining nigohini sezaman. U ona tili bo'yicha darslik-qo'llanma yozgani uchun emas, ustozim bo'lgani uchun ham emas, u – oddiy, o'zgacha adabiyot o'qituvchisi bo'lgani uchun uning oldida o'zimni qarzdor sezaman. Bugun ko'plab iste'dodli yigit-qizlarning kitoblari chop etilmoqda. Ular, eng avvalo, adabiyot o'qituvchisining shogirdlaridir. Ular do'stim aytgan, "O'qiydigan kitob yo'qi!" deyidigan o'qituvchining shogirdlariga o'xshamaydi. Ular mening ustozimning shogirdlariga juda-juda o'xshab ketadi.

O'qishni tugatib, bir kursdosh do'stim bilan uyga bordim. Suhbatimiz yana adabiyotga bog'landi. Ustozim yana o'sha savolni berdi: "Go'ro'g'li sulton bir yon, To'ra Sulaymon bir yon". Nega?

Men ham, do'stim ham yer chizib qoldik. Taxminlar bor, lekin aniq to'xtam yo'q. Men shu savolga javob izlab "Go'ro'g'li" dostoniga, To'ra Sulaymon ijodiga qayta-qayta murojaat qildim. Ammo... men izlagan adabiyot o'qituvchisi kutgan javobni hali-hanuz topganimcha yo'q... Baribir topaman. Negaki men, savol bormi, demak, qayerdadir uning javobi borligini ham bilaman. Adabiyot o'qituvchimiz shunday degan edi...

Sanjar TURSUNOV,
jurnalist

VATANPARVARLIK – OLY MAQSADIMIZ!

Yoshlar oyligi
doirasida
Toshkent
viloyatidagi
“Chirchiq” dala-
o'quv maydonida
O'zbekiston
Respublikasi
mudofaasiga
ko'maklashuvchi
“Vatanparvar”
tashkiloti markaziy
kengashi raisi
kubogi uchun
“Shunqorlar”
harbiy sport
o'yinlarining
respublika
bosqichi
o'tkazildi.



Mudofaa vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda o'tkazilgan “Shunqorlar” harbiy sport o'yinlarining final bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda istiqomat qilayotgan 17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan 140 nafar yoshdan tashkil topgan 14 ta jamoa uchta blokdan iborat sinovdan o'tkazildi.

“Harbiy-vatanparvarlik bloki”da jamoa a'zolarining O'zbekiston harbiy tarixiga doir bilimlari tekshirildi. Shuningdek, saf qo'shig'i va “Biz bir jamoamiz!” ko'rik-tanlovlari bo'lib o'tdi.

“Harbiy-amaliy ko'pkurash bloki”da jamoalar pnevmatik quroldan o'q otish, o'quv granatasini uzoqlikka uloqtirish va harbiylashtirilgan estafeta bo'yicha bellashdi. Harbiylashtirilgan estafeta





“Shunqorlar” harbiy sport o‘yinlarining respublika bosqichida ketma-ket uchinchi bor Xorazm viloyati jamoasining qo‘li baland kelib, O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi raisining kubogini qo‘lga kiritdi. 2-o‘rin Toshkent viloyati, 3-o‘rin esa Andijon viloyati jamoalariga nasib etdi.

Tadbir yakunida faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan jamoa a‘zolari “Vatanparvar” tashkiloti va Yoshlar ishlari agentligi rahbariyati tomonidan diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Eng e‘tiborli jihati mazkur o‘yinlar doirasidagi turli musobaqalarda yuqori natijalarni ko‘rsatgan 8 nafar yigit-qiz sport razryadlariga ega bo‘ldi.

Ta’kidlash joizki, respublika miqyosida o‘tkazib kelinayotgan “Shunqorlar” harbiy sport o‘yinlari “Vatanparvar” tashkilotining

“Vatanparvarlik – oliy maqsadimiz!” konseptual harbiy-vatanparvarlik

g‘oyasi ostida yoshlarni birlashtirishga mustahkam zamin yaratdi.

Mazkur o‘yinlarni o‘tkazishdan asosiy maqsad yoshlarni Vatanga sadoqat va yuksak harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, chaqiruvga qadar yoshlarning Qurolli Kuchlar safida



doirasida yoshlar avtomatni noto‘liq qismlarga ajratish va to‘liq yig‘ish hamda gazga qarshi niqobni kiyib, belgilangan masofaga yugurish shartlarini bajardi.

“Sport bloki”da duatlon, 100 metr masofaga yugurish va turnikda tortilish bo‘yicha o‘zaro musobaqalashdi.

“Shunqorlar” harbiy sport o‘yinlari davomida yoshlarning g‘alabaga kuchli intilishlari, shijoatlari va harbiylikka bo‘lgan qiziqishlari yaqqol sezilib turdi.

Do‘stona ruhda, shu bilan birga shiddatli va murosasiz kechgan



xizmat qilishga qiziqishini oshirib borish hamda ularni ruhan va jismonan chiniqtirishdan iboratdir.

2024-yilning mart oyida “Vatanparvar” tashkiloti markaziy kengashi, Yoshlar ishlari agentligi hamda bir qator vazirlik va idoralar o‘rtasida “Shunqorlar” harbiy-vatanparvarlik spartakiadasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori imzolangan bo‘lib, ushbu hujjatda “Shunqorlar” harbiy sport o‘yinlarining mahalla, tuman (*shahar*), hududiy va respublika bosqichlari o‘tkazilishi belgilangan.

Yana bir muhim ma’lumot: “Shunqorlar” harbiy sport o‘yinlarining bayrog‘i va emblemasi yaratilgan bo‘lib, asosiy ramzi sifatida shunqor qushi tanlangan. Bu bejiz emas, chunki shunqor lochinsimonlar oilasiga mansub kuchli, abjir qush hisoblanadi va u ko‘chma ma’noda mard, jasoratli, kuchli shaxsga nisbatan qo‘llaniladi.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”



26-iyuldan 28-avgustgacha Fransiya poytaxti Parij shahrida XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlari bo'lib o'tadi. 28-avgustdan XVII Paralimpiya o'yinlari boshlanib, 8-sentabrga qadar davom etadi. To'rt yilda bir marta o'tkaziladigan mazkur nufuzli musobaqalar yaqinlashgan sayin saralash yoki reyting ochkolari jamg'arish turnirlari tobora qizg'in tus olmoqda. Mazkur bahslarda O'zbekiston terma jamoasi a'zolari, jumladan Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham faollik ko'rsatyapti.

"Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanmalarni qo'lga kiritish borasida boks, taekvondo, eshkak eshish, velosport, badiiy gimnastika, zamonaviy beshkurash, suvga sakrash, qilichbozlik, kamondan o'q otish, erkin kurash, yunon-rum kurashi, sport gimnastikasi, yengil atletika kabi 17 ta sport turi bo'yicha bahslarda hamyurtlarimiz faollik ko'rsatgandi. Endi ular safiga dzyudo, suzish va kamondan otish sport turlari bo'yicha ham yo'llanma sohiblari qo'shildi. Taekvondo, og'ir atletika hamda sport kurashlari bo'yicha Olimpiada yo'llanmasi sohibiga aylangan vakillarimiz safi esa yanada kengaydi. Xususan, Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi (IWF) "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlariga yo'llanmani qo'lga kiritgan sportchilar taqsimotini qayta shakllantirdi. Unga muvofiq, O'zbekiston terma jamoasi a'zosi Tursunoy Jabborova individual kvota sohibasiga aylanib, yo'llanma sohiblari safiga qo'shildi. Hamyurtimiz bo'lajak Olimpiadada +81 kg vazn toifasida ishtirok etadi. Tursunoy Jabborovaning muvaffaqiyati tufayli o'zbekistonlik 3 nafar og'ir atletikachi "Parij - 2024" supachasida Olimpiada medallari uchun kurash olib borish huquqiga ega bo'ldi.

TAEKVONDO

Butunjahon taekvondo federatsiyasi (WT) "Parij - 2024" yozgi Olimpiya o'yinlari uchun yo'llanmalar taqsimotini qayta shakllantirdi. Biz uchun eng e'tiborli jihati, mazkur taqsimotga ko'ra, O'zbekiston terma jamoasi a'zosi, Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Nikita Rafalovich +80 kg vazn toifasida Olimpiada ishtirokchilari qatoridan joy oldi.

Eslatib o'tamiz, Rafalovich 2023-yil yakunida e'lon qilingan Olimpiada reytingida 6-o'rinda qayd etilgan edi. Ayni holat o'z-o'zidan Rafalovichni Butunjahon taekvondo federatsiyasi e'tirofi tufayli muvaffaqiyatli sportchilar qatorida "Parij - 2024" Olimpiya o'yinlari ishtirokchilari safidan joy olishiga olib keldi. Bu, taekvondo WT bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi o'z tarixida ilk bor Olimpiada o'yinlarida 3 nafar erkak va 2 nafar ayol sportchi bilan qatnashish huquqiga ega bo'lishini ta'minladi.

Shu tariqa, Parij shahrida o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarida yurtimiz sport sharafiga 5 nafar taekvondochimiz himoya qiladigan bo'ldi. Ularning barchasi MVSM a'zolaridir:

-68 kg: Ulug'bek Rashitov (MVSM)
-80 kg: Jasurbek Jaysunov (MVSM)
+80 kg: Nikita Rafalovich (MVSM)
-67 kg: Ozoda Sobirjonova (MVSM)
+73 kg: Svetlana Osipova (MVSM)

DZYUDO

Bundan uch yil muqaddam dzyudochilarimiz "Tokio - 2020" Olimpiya o'yinlarining 11 ta sovrinli o'rinlari uchun kurashgandi. O'zbekiston dzyudo terma jamoasi kunchiqar yurtda 7 nafar o'g'il, 3 nafar

"PARIJ - 2024"

SARI ODIMLAR YOSHLAR



SUZISH

qiz va aralash jamoaviy yo'nalishdagi bahslarda qatnashib, yakunda MVSM vakili Davlat Bobonov -90 kg vaznda bronza medalni qo'lga kiritgan edi. Joriy yil Parijda o'tadigan Olimpiya o'yinlarida dzyudochilarimiz yanada kengroq tarkibda qatnashadigan bo'ldi. Terma jamoamiz asosiy negizi MVSM dzyudochilaridan iborat.

Ta'kidlash joiz, bu galgi Olimpiya o'yinlari reytingida yurtimizning ko'plab dzyudochilari o'z vaznlarida kuchlilar qatorida qayd etildi. Ba'zi hollarda bitta vaznda o'zbekistonlik 3-4 nafar sportchi "Parij - 2024" reytingiga kiritildi. Ular har jihatdan mahoratlar safida bo'lishga munosibligini xalqaro musobaqalardagi ishtiroki orqali isbotladi. Biroq Xalqaro dzyudo federatsiyasi tomonidan to'rt yillikning yirik musobaqasi uchun ishlab chiqqan maxsus dasturiga muvofiq, Olimpiya o'yinlarida har bir davlatdan faqat bir nafardan dzyudochi ishtirok etish huquqiga ega. Aynan qaysi sportchining Olimpiya o'yinlariga borishini milliy federatsiya tomonidan tasdiqlangan murabbiylar kengashi belgilashi ko'rsatib o'tilgan. 21-iyun kuni O'zbekiston dzyudo federatsiyasi murabbiylar kengashi "Parij - 2024"da o'z mahoratini namoyish etishga loyiq ko'rilgan tarkibni tasdiqladi.

Yana shuni alohida ta'kidlash joiz, Olimpiya o'yinlari tarixida mamlakatimiz dzyudochilari hech qachon 12 ta sovrinli o'rin uchun kurashga kirishmagan. Bu gal esa O'zbekiston dzyudosi tarixida yangi cho'qqi zabt etildi. Dzyudochi yigitlarimiz 7 nafar sportchi bilan Olimpiada medallari uchun kurash olib borsa, dzyudochi qizlarimiz 4 ta vaznda Parij tatamilarida O'zbekiston nomini ulug'laydi. Bundan tashqari, terma jamoamiz jamoaviy aralash bahslarida "Parij - 2024"ning sovrinli o'rinlariga da'vogarlik qilishadi. Bu XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarida dzyudochilarimiz 12 ta medal uchun kurashga kirishadi, deganidir.

"Parij - 2024" Olimpiadasida ishtirok etadigan dzyudochilarimiz:

Erkaklar:

-60 kg: Doston Ro'ziyev
-66 kg: Sardor Nurillayev (MVSM)
-73 kg: Murodjon Yo'ldoshev
-81 kg: Sharofiddin Boltaboyev
-90 kg: Davlat Bobonov (MVSM)
-100 kg: Muzaffarbek To'raboyev
+100 kg: Alisher Yusupov

Ayollar:

-48 kg: Halimajon Qurbonova
-52 kg: Diyora Keldiyorova (MVSM)
-70 kg: Gulnoza Matniyozova (MVSM)
-78 kg: Irisxon Qurbonboyeva (MVSM)

Asli rossiyalik bo'lgan mahoratli suzuvchi Ilya Sibirsev sport fuqaroligini almashtirgan holda joriy yildan boshlab, O'zbekiston terma jamoasi safida mamlakatimiz nomidan xalqaro musobaqalarda qatnashmoqda. Ushbu vaziyatni Butunjahon suv sport turlari federatsiyasi ijobiy qabul qilib, rasman tasdiqlagan.

Suzish ustasining mamlakatimiz fuqaroligidagi sport faoliyati ham muvaffaqiyatli kechyapti. Xususan, o'tgan hafta oxirida Kanadaning Vankuver shahrida suzish bo'yicha xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etgan Ilya Sibirsev O'zbekiston sport muxlislariga quvonch hadya etib, o'zini yanada yaqinroq tanitdi. Terma jamoamiz a'zosi 800 metr masofaga erkin suzish bahslarida 7:50,05 natija qayd etdi va Olimpiya o'yinlari kvalifikatsiyasi me'yorini bajardi. Buni biroz boshqacha izohlaganda, Ilya Sibirsev joriy yil Parijda o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiada o'yinlarining 800 metrga erkin suzish bahslarida ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi.

SPORT KURASHLARI

"Parij - 2024" Olimpiya o'yinlarining boshlanishi yaqinlashgani sayin unda ishtirok etadigan sportchilar safi ham kengaymoqda. Xalqaro olimpiya qo'mitasi ham xalqaro sport federatsiyalarining reytingi asosida "Parij - 2024"dan joy olishga munosib sportchilar ro'yxatini e'lon qilmoqda.

Yaqinda yozgi Olimpiya o'yinlarida qatnashishga munosib ko'rilgan taekvondochilar, undan keyin og'ir atletikachilarning so'nggi ro'yxati tasdiqlangandi. Sport kurashlarida ham "Parij - 2024" yo'llanmasiga munosiblarning oxirgi ro'yxati e'lon qilindi. Quvonchli jihati, ular safidan ayollar kurashi bo'yicha mahoratli sportchimiz Layloxon Sobirova ham o'rin oldi. -57 kg vazn toifasidagi kurashchi qizimiz "Parij - 2024"da qatnashadigan sport kurashlari bo'yicha vakillarimiz soni 8 nafarga yetishini ta'minladi.

PARA PAUERLIFTING

Gruziyaning Tbilisi shahrida para pauerlifting bo'yicha "Parij - 2024" yozgi Paralimpiya o'yinlariga muhim reyting ochkolarini beruvchi jahon kubogi musobaqalari o'tkazildi. Quvonarlisi, musobaqaning dastlabki kunida ayollar o'rtasida -50 kg vazn toifasida bahslarda ishtirok etgan hamyurtimiz Aqidaxon Axtamova 109 kg natija qayd etgan holda jahon reytingida 8-o'rinni egalladi va "Parij - 2024" yozgi Paralimpiya o'yinlari yo'llanmasi sohibiga aylandi.

Yoshlar o'rtasida -61 kg vazn toifasida bahslarga kirishgan hamyurtimiz Ruxshona O'ktamova esa 109 kg natija qayd etgan holda oltin medalni qo'lga kiritdi. E'tiborli jihati, vakilimiz ushbu natija orqali o'ziga tegishli hisoblangan yoshlar o'rtasidagi jahon va qit'a rekordini ham yangilashga muvaffaq bo'ldi.

SHOHSUPA

(xabarlar)

DEYARLI 40 FOIZ SPORTCHIMIZ
YAKUNDA SOVRINDOR

Rossiyaning Qozon shahri mezbonlik qilgan VI "BRIKS" xalqaro sport o'yinlari mamlakatimiz sportchilari uchun samarali yakunlandi.

Dunyoning 90 ga yaqin davlatidan 4 ming nafardan ziyod sportchi ishtirok etib, jami 387 ta medal jamg'armasi uchun o'zaro raqobatlashgan yirik musobaqada hamyurtlarimiz 114 ta medalga egalik qildi. Ushbu muvaffaqiyatga Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi (MVSM) vakillari ham ulush qo'shdi.

Yilning eng yirik musobaqalaridan biri hisoblangan mazkur sport o'yinlarida ishtirokchilar 27 ta sport turi bo'yicha jami 387 ta medal jamg'armasi uchun o'zaro kurash olib bordi. Unda yurtimizning 250 nafardan ziyod vakili ham qatnashib, Vatanimiz sport sharafigi munosib himoya qildi. "BRIKS" o'yinlarining 23 ta sport turida g'oliblik uchun kurash olib borgan vakillarimizning deyarli 40 foizi yakunda sovrindorlar safidan joy oldi.

Oltinchi bor o'tkazilgan "BRIKS" o'yinlarini sportchilarimiz ko'tarinki ruhda boshlab, musobaqaning dastlabki kunlaridanoq delegatsiyamiz jamg'armasini "medallar yomg'iri"ga ko'mib tashlagan bo'lsa-da, ayrim yo'nalishlarda texnik-taktik mahoratni yanada toblash zarurligi bellashuvlarda ko'zga tashlandi. Xususan, ba'zi sportchilarimiz musobaqaning medallari uchun kurash boradigan yarim final va final bosqichlarigacha muvaffaqiyatli odimlab, hal qiluvchi so'nggi bahslarda imkoniyatni boy berib qo'yishdi. Bu holat "BRIKS" o'yinlarining yettinchi va sakkizinchi kungi bahslarigacha kuzatildi. Baydarka va kanoeda eshkak eshish, boks, belbog'li kurash bo'yicha vakillarimiz bahslarga kirishi bilan esa jamg'armamiz oltin medallar bilan yana boyib boshladi. Jumladan, Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi vakili Artur Guliyev 200 metrda kanoeda eshkak eshish poygasida raqobatning kuchliligiga qaramasdan barcha raqiblarini dog'da qoldirgani e'tiborga molik bo'ldi. U final ostonasida soniyalar oralig'ida rossiyalik Sergey Svinarevni kumush, belaruslik Aleksandr Zubokni bronza medali bilan kifoyalantirdi va musobaqaning oltin medaliga egalik qildi. Baydarka va kanoeda eshkak eshish musobaqalarida O'zbekiston sportchilari bitta oltin va ikkita bronza medalni qo'lga kiritib, Belarus va Rossiyadan keyin kuchli uchlikka yakun yasadi.

"BRIKS" o'yinlarining so'nggi kunlari bokschilarimiz va belbog'li kurashchilarimiz katta sahnaga chiqdi. Bokschilarimiz ushbu musobaqaning 5 ta oltin, 7 ta kumush, 8 ta bronza medaliga sazovor bo'lib, umumjamoa hisobida Rossiyadan keyin 2-o'rinni egalladi. Yurtimiz charm qo'lqop ustalaridan Bahodir Jalolov, Shavkatjon Boltayev, Havasbek Asadullayev, Nigina O'ktamova oltin medalni qo'lga kiritdi. Shu jumladan, MVSM bokschisi Madiyar Saidrahimov ham musobaqada g'oliblikka erishdi.



Boks janglari sarhisobiga ko'ra, Rossiya 24 ta (15 ta oltin, 4 ta kumush, 5 ta bronza), O'zbekiston 19 ta (5 ta oltin, 6 ta kumush, 8 ta bronza), Hindiston 9 ta (2 ta oltin, 3 ta kumush, 4 ta bronza), Xitoy vakillari 7 ta (1 ta oltin, 4 ta kumush, 2 ta bronza) medal jamg'arib, yuqori o'rinlarni band qildi.

Shuningdek, mamlakatimiz belbog'li kurashchilari bokschilarimiz singari "BRIKS" o'yinlarining haqiqiy qahramonlariga aylanishdi. O'yinlar davomidagi shiddatli bellashuvlarda 7 ta oltin, 9 ta kumush va 4 ta bronza medalga ega chiqqan yurtimiz kurashchilari umumjamoa hisobida Rossiyadan keyin 2-o'rinni egalladi.

E'tiborli jihati, belbog'li kurash turlari bo'yicha kechgan musobaqalarda 20 nafar sportchimiz ishtirok etib, ularning barchasi sovrindorlar qatoridan joy oldi. Bu esa yangicha rekord ko'rsatkichga aylandi. Boisi bugungacha belbog'li kurashchilarimiz hech bir kompleks musobaqada bu qadar yuz foizlik natijaga erishmagandi.

VI "BRIKS" xalqaro sport o'yinlarida Murodjon Hamidov, Husniddin Ro'ziyev, Nodirbek Ahatjonov, Abdulahad Nosirov, Diyorbek Polvonov, Samandar Anvarov, Farangiz Abdunabiyeva kabi belbog'li kurashchilarimizning g'olibligi sharafiga yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilib, Vatanimiz madhiyasi yangradi.

Umuman olganda, boks, karate, sambo, baydarka va kanoeda eshkak eshish, belbog'li kurash kabi sport turlari bo'yicha bahslarda yurtimizning yetakchi sportchilari ham qatnashdi va o'z oldilariga qo'yilgan vazifani uddaladi. Tatariston poytaxtida o'tgan musobaqalar sarhisobiga ko'ra, O'zbekiston sport delegatsiyasi umumiy hisobda 114 ta medal shodasiga ega bo'lgan holda Rossiya (jami 502 ta medal) va Belarus (jami 242 ta medal) vakillaridan keyingi 3-pog'onani band etdi. Oltin medallar holati bo'yicha esa O'zbekiston sport delegatsiyasi 90 ta davlat orasida 4-o'rinni egalladi.

VI "BRIKS" xalqaro sport o'yinlarida umumjamoa hisobida Rossiya terma jamoasi 252 ta oltin, 141 ta kumush va 99 ta bronza medal bilan yetakchilikka erishdi. 2-o'rin Belarus (55 ta oltin, 85 ta kumush, 107 ta bronza) vakillariga nasib etgan bo'lsa, Xitoy (20 ta oltin, 24 ta kumush, 18 ta bronza) 3-o'rinni, O'zbekiston (17 ta oltin, 39 ta kumush, 58 ta bronza) sport delegatsiyasi 4-o'rinni band etdi. Braziliya (7 ta oltin, 20 ta kumush, 23 ta bronza), Eron (4 ta oltin, 12 ta kumush, 20 ta bronza), Ozarbayjon (4 ta oltin, 9 ta kumush, 21 ta bronza), Hindiston (3 ta oltin, 6 ta kumush, 20 ta bronza) jamoalari keyingi pog'onalardan joy oldi.

YENGIL ATLETIKA



Shveysariyaning Jeneva shahrida yengil atletika bo'yicha "Atleticageneve - EAP" xalqaro turniri o'tkazildi. Yevropa va Osiyo mamlakatlari vakillari ishtirok etgan ushbu nufuzli musobaqada O'zbekiston terma jamoasi a'zolari oltin va bronza medallarni qo'lga kiritdi. Mahoratli sportchimiz Anvar Anvarov uzunlikka sakrash dasturida 8 metr natijaga erishgan holda g'oliblik shohsupasiga ko'tarildi. Osiyo o'yinlari g'olibi Safina Sa'dullayeva esa balandlikka sakrash bahslarida 1.83 metr balandlik nuqtasini zabt etib, bronza medalga musharraf bo'ldi.

Qozog'istonning Almati shahrida yengil atletika bo'yicha poyoniga yetgan xalqaro xotira turnirida O'zbekiston terma jamoasi 19 ta medal shodasini qo'lga kiritdi. 5 ta oltin, 10 ta kumush va 4 ta bronza medalga sazovor bo'lgan sportchilarimiz orasida Elina Silyamiyeva, Ivan Denisov, Nargiza Qo'chqorova, Sharifa Davronova va Jonbibi Hukmova o'z dasturlarida tengsiz ekanliklarini namoyish qildi.

OTSPORTI



Rossiyada ot sporti bo'yicha "Maxima masters Eurasia" turkumiga kiruvchi "Maxima stables" xalqaro turnirida O'zbekiston terma jamoasi a'zolari muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Chavandozimiz Alyona Derevyanko o'zining yangi "Pikasso" ismli oti bilan chiqish qilib, 2 ta oltin medalni qo'lga kiritdi. To'siq balandligi 95 sm bo'lgan yo'nalishda esa Ermuhammad Fozilxo'jayev o'zining "Lotus" laqabli oti bilan g'olib chiqdi. To'siq balandligi 110 sm yo'nalishda Bekzod Ergashboyev "Skarlet" tulpori bilan shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldi. O'zbekiston terma jamoasi jamoaviy bahslarda kumush medalni qo'lga kiritdi.

BADIY GIMNASTIKA




Italiyaning Milan shahrida badiiy gimnastika bo'yicha jahon kubogining beshinchi bosqich bahslari bo'lib o'tdi. Dunyoning o'ndan ortiq davlati gimnastikachilari ishtirok etgan mazkur musobaqaning yakka-lik yo'nalishida hamyurtimiz Taxmina Ikromova ikki bora shohsupaga ko'tarildi. U dastlab xalqada mashq bajarishning final bosqichida 34.100 ball jamg'arib, bronza medalga sazovor bo'ldi. So'ng to'pda mashq bajarish bo'yicha 34.400 ball bilan yana shohsupaning 3-o'midan joy oldi.

TENNIS



Belgiyaning Dyuffel shahri mezbonlik qilgan tennis bo'yicha M-25 tasnifiga kiruvchi "Gonzalez Academy event" xalqaro turniri yakunlandi. Yakkalik bahslarida mamlakatimizning birinchi raqamli tennischisi Humoyun Sultonov finalga qadar muvaffaqiyatli odimladi va musobaqaning vitse-chempioniga aylandi. Hal qiluvchi so'nggi bahsda tennischimiz avstriyalik Sandro Koppga imkoniyatni boy berib qo'ydi.

SHAXMAT



Qozog'istonda 7 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan shaxmatchilar o'rtasida 26-Osiyo chempionati o'tkazildi. 34 ta mamlakatning 650 nafardan ziyod navqiron avlod vakillari ishtirok etgan birinchi-likda yurtimiz yosh shaxmatchilari ham qatnashdi va sovrindorlar safidan joy oldi. Xususan, Nurmuhammad Ne'matillaxonov 8 yoshgacha bo'lganlar o'rtasida 2-o'rinni, Shohjahon Siddiqov 3-o'rinni egalladi. Madinabonu Xalilova esa 16 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasida 2-o'rindan joy oldi.

MUDOFAA VAZIRI KUBOGI EGASI ANIQLANDI

So'nggi yillarda yurtimizda biatlon sport turini yanada rivojlantirish, u bilan shug'ullanuvchilar sonini oshirish borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari o'rtasida "Dog biatlioni", "Armiya biatlioni", "Tog' biatlioni" kabi musobaqalarning muntazam o'tkazib borilayotgani mazkur sport turining ommalashishiga xizmat qilmoqda.



Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti dog biatlioni maydonida Mudofaa vazirligi qo'shinlari o'rtasida "Mudofaa vaziri kubogi uchun" armiya biatlioni musobaqasining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi.

Unda jami 9 ta jamoa g'oliblik uchun 4 ta shart bo'yicha o'zaro kuch sinashdi. Ishtirokchilar 3 200 metrga yugurish mobaynida yotgan va tik turgan holda 25 metr masofada jami 15 ta o'q otish shartida merganlik mahoratini namoyish etgan bo'lsa, 40 metrdan granata va 7 metrdan pichoq otish shartida tezkorlik bilan bexato nishonga olish ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdi.

Musobaqada jarima olgan ishtirokchilar har bir xato nishon uchun 100 metrga yugurdi. Bu esa ularni yanada ehtiyotkor va tezkor bo'lishga chorlab, bellashuvning qizg'in va bahs-munozaralarga boy tarzda o'tishiga sabab bo'ldi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, jamoaviy bahslarda 1-o'rin Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasiga nasib etgan bo'lsa, 2-o'rinni Toshkent harbiy okrugi, 3-o'rinni esa Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi hamda Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti jamoalari qo'lga kiritdi.

Bundan tashqari, yakka tartibda yuqori ko'rsatkich qayd etgan harbiy xizmatchilar ham aniqlandi. Xususan,

1-o'rinni kichik serjant R. Hojiyev (JG'MHO), 2-o'rinni kichik serjant B. Toshpo'latov (JG'MHO), 3-o'rinni kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar A. Narziyev (THO) egalladi.

– Mazkur musobaqa bizga ham jamoa tarkibida, ham yakka tartibda o'zimizning jismoniy holatimizni, amaliy ko'nikmalarimizni sinovdan o'tkazish uchun qulay imkoniyat bo'ldi, – deydi kichik serjant Ruslan Hojiyev. – Musobaqada yo'l qo'ygan kamchiliklarimizni bartaraf etish bo'yicha kelgusida o'z ustimizda yana ham qattiqroq ishlaymiz.

G'oliblar diplom, kubok va esdalik sovg'alar bilan tantanali ravishda taqdirlandi.

Ro'ziqul OCHILOV,
"Vatanparvar"



Mulohaza

JISMONIY TARBIYANING AQLIY MEHNAT UCHUN AHAMIYATI

“Aqliy mehnat ishchisi” tushunchasiga ta’rif berishdan oldin, “aqliy mehnat” tushunchasini aniqlab olishimiz kerak. Aqliy mehnat – bu ma’lum ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va ulardan foydalanish bilan bog’liq bo’lgan faoliyat bo’lib, u turli xil fikrlash jarayonlarini faollashtirishni, shuningdek xotira va diqqatni jam qilishni talab qiladi. Binobarin, aqliy mehnat ishchisi bu o’z faoliyati davomida ba’zi ma’lumotlardan foydalanadigan va qayta ishlaydigan, shu bilan birga o’z diqqatini, xotirasini va boshqa fikrlash jarayonlarini ishlatadigan shaxsdir.

Aqliy mehnat ishchilarining tasnifiga turli nuqtayi nazardan qarash mumkin. Ba’zi ekspertlarning fikricha, jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida aqliy mehnat bilan bog’liq ko’plab kasblar jismoniy mehnat elementlarini o’z ichiga olishi mumkin. Shuning uchun aqliy mehnat kasblarini ishchining tayyorgarlik darajasiga ko’ra tasniflash yaxshiroqdir. Xususan, nafaqat maxsus tayyorgarlik va bilim talab qiladigan, balki umumiy madaniy tayyorgarlikni ham talab qiladigan kasblar, o’z mutaxassisligi bo’yicha chuqur nazariy tayyorgarlikni talab qiladigan kasblar va amaliy kasbiy tayyorgarlikni talab qiladigan kasblar shular jumlasidan. Mehnat va kasbiy faoliyatning maqsadlariga ko’ra tasniflanish mavjud bo’lib, unga ko’ra aqliy mehnat 3 turga bo’linadi: operator, boshqaruvchi va ijodiy ish.

Jismoniy tarbiya aqliy mehnat ishchilari uchun o’ta muhim hisoblanadi. Bunday kasblar vakillari orasida “sivilizatsiya kasalliklari”, ya’ni yurak-qon tomir, asab, immun, ovqat hazm qilish va endokrin tizimlarning patologiyalari eng ko’p uchraydi. Bu yerda siz aqliy va jismoniy mehnatni farqlashingiz mumkin. Jismoniy mehnat paytida mushaklar charchaydi, lekin shu bilan birga tananing o’zi ham asta-sekin zo’riqishga o’rganib qoladi va shu bilan ishga moslashadi. Aqliy mehnat jarayoniga kelsak, ishchilar nafaqat o’zlarining ko’p vaqtlarini bir joyda o’tkazadilar, balki ular juda ko’p hissiy va asabiy taranglik hamda stress ostida ham bo’lishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu turdagi ishning o’ziga xos xususiyati mavjud: ish kuni tugagandan so’ng odam o’z ish joyida bo’lmasa ham, o’z ishi haqida o’ylashni davom ettirishi mumkin va bu xodimning sog’lig’iga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun aqliy mehnat kasblari vakillarida mehnat

muhitining turli xil tashqi omillariga qarshilikni asta-sekin rivojlantirish juda zarur.

Uzoq muddatli aqliy mehnat paytida tanada juda ko’p turli xil jarayonlar sodir bo’ladi: miya tomirlarini qon bilan ta’minlanishi, periferik tomirlarning torayishi va ichki a’zolar tomirlarining kengayishi. Agar bularning barchasiga hissiy stress, hayajon, g’azab, asab tarangligini qo’shsak, unda holat biroz boshqacha tus oladi: yurak urishi va qon bosimi ko’tariladi, tananing termoregulyatsiyasi buziladi, nafas olish notekis bo’ladi, charchoqning dastlabki belgilari paydo bo’ladi.

Kun davomida xodimlarga taxminan 2-2,5 soatlik ish vaqti o’tganidan so’ng jismoniy tarbiya uchun tanaffus qilish tavsiya etiladi. Ushbu “pauza” 5-8 mashqdan iborat bo’lib, unda ma’lum bir ish va ish kuni bilan bog’liq ko’plab omillar hisobga olinadi: xodimning ish holatining o’ziga xosligi, ish paytida harakatlari, hissiy va asabiy taranglik darajasi hamda boshqalar. Jismoniy tarbiya tanaffuslari majmuasiga quyidagi mashqlar kiradi: joyida yurish, nafas olish mashqlari, tanani egish, boshni aylantirish.

Jismoniy tarbiya mashg’ulotlarining yana bir turi jismoniy tarbiya daqiqalari bo’lib, ular jismoniy tarbiya tanaffuslari oralig’ida o’tkaziladi. Jismoniy tarbiya daqiqalarining o’ziga xosligi shundaki, bu mashqlarni o’rindiqdan turmasdan ham bajarish mumkin. Biror inson uzoq vaqt o’tirganda, tanadagi ko’plab mushak guruhlari uzoq muddatli statik kuchlanishni boshdan kechiradi, bunday charchoqni mashqlar bilan bartaraf etish talab etiladi.

Barcha aqliy mehnat ishchilari charchoq hissi bilan tanish. Ko’pincha bu beparvolik bilan ifodalanadi, xodim yangi

ma’lumotni tezda unutishi mumkin; ba’zi hollarda charchoq uyquchanlik yoki haddan tashqari qo’zg’alish orqali namoyon qilishi mumkin. Shuning uchun xodimlar ish kuni davomida bir necha marta mashq qilish kerak. Albatta, shunday paytlar borki, charchoq shunchalik kuchli bo’ladiki, hatto jismoniy mashqlar ham yordam bermaydi. Bunday hollarda inson, albatta dam olishi kerak. Inson sog’lig’ini va ish faoliyatini yaxshilash uchun qisqa mashg’ulotlar yetarli bo’lmasligi mumkin, bunday hollarda ishdan keyin bo’sh vaqtlarda mustaqil ravishda jismoniy tarbiya bilan shug’ullanish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o’z vaqtida va samarali dam olish aqliy mehnat bilan shug’ullanadigan inson uchun juda ham ahamiyatlidir. Ko’pgina mutaxassislar dam olishning ikki turini – faol va passiv dam olishni farqlaydi. Faol dam olish inson tanasiga uzoq muddatli past intensivlikdagi stressni o’z ichiga oladi. Dam olish kunlarida sayr qilish, bog’dorchilik, o’rmonda qo’ziqorin terish, bouling, raqs klublari, turli xil sport o’yinlariga borish, faol dam olishga misol bo’la oladi. Agar biz passiv dam olish haqida gapiradigan bo’lsak, unda bu aniq ifodalangan jismoniy harakatsiz butun inson tanasining nisbiy dam olishini nazarda tutadi. Televizor tomosha qilish, kitob yoki jurnal o’qish kabi mashg’ulotlar passiv dam olish turiga kiradi. Ushbu turdagi ta’til uzoq ish kunidan keyin yolg’iz qolishni xohlaydigan xodimlar uchun mos bo’lishi mumkin.

Podpolkovnik Dilshod ALANGOV,
Qurolli Kuchlar akademiyasi
katta o’qituvchisi

Ma’naviyat kuni

CHEMPION BILAN UCHRASHUV

O’zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasida o’tgan bu galgi ma’naviyat kuni ham o’zgacha taassurotlarga boy bo’ldi.

Dastavval yengil atletika bo’yicha Olimpiya, Jahon, Osiyo va Yevropa chempioni, sport ustasi Oksana Chusovitina bilan uchrashuv bo’lib o’tdi. Unda videokonferens-aloqa tarzida mahkama va hududiy harbiy prokuraturalar xodimlari ishtirok etdi.

Oksana Chusovitina – tirik afsona. U 8 marta Olimpiya o’yinlarida ishtirok etib, gimnastika tarixi va “Ginnessning rekordlar kitobi”ga kiritilgan. Yurtimizda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-martdagi qarori bilan gimnastika bo’yicha Oksana Chusovitina sport mahorati maktabi tashkil etilgan.

Suhbat davomida qahramonimiz o’z xotiralari bilan o’rtoqlashdi. Uchrashuv qiziqarli savol-javoblar ostida o’tdi.

Tadbir o’quv mashg’ulotiga ulanib ketdi. Jarayonda Toshkent davlat pedagogika universiteti psixologiya kafedrası professori D. Mahmudova, Respublika sud ekspertiza markazi eksperti Sh. Urazmatov, IIV Kiberxavfsizlik markazi yetakchi mutaxassisi kapitan Sh. Mamadaliyev va Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti, texnika fanlari nomzodi A. Musayev o’z ma’ruzalari bilan ishtirok etdi.

Adliya mayori Sirojiddin CHORIYEV,
Respublika Harbiy prokuraturasi
bo’lim katta harbiy prokurori

Inson qadri uchun

MA’NAVİYAT SOATI

Harbiy prokuratura organlari tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari bilan hamkorlikda hududlarga bevosita chiqish orqali yurtimiz bo’ylab ommaviy sayyor qabullar o’tkazilmoqda.

Ularning navbatdagisi Bosh prokuror o’rinbosari – O’zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori B. Kudratxodjayev tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari mas’ullari bilan hamkorlikda Buxoro viloyatining Qorako’l tumanida tashkil etildi.

Jarayonda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari, pensionerlar va yoshlar ishtirok etdi.

Kelib tushgan 44 ta murojaatdan 8 tasi joyida ijobiy hal etildi, 26 tasiga huquqiy tushuntirish berildi, 10 tasi nazoratga olingan holda mutasaddilarga yo’naltirildi. So’ngra harbiy qismlarning birida o’rganishlar olib borildi va natijalari bo’yicha mas’ullarga tegishli ko’rsatmalar berildi.

Adliya podpolkovnigi Sardor YORMATOV,
O’zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi




KASB BAYRAMINGIZ MUBORAK BO'LSIN!

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Xorazm viloyati kengashi va uning joylardagi o'quv sport texnika klublari a'zolari "VATANPARVAR" gazetasi tashkil etilganining 32 yilligi hamda 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha xodimlarini muborakbod etadi.

Fursatdan foydalanib, barcha ommaviy axborot vositalari xodimlarini va harbiy jurnalistlarni kasb bayrami bilan chin dildan tabriklaydi.

Niyatimiz – "Vatanparvar" gazetasi yana yuz yillab ziyo taratib boraversin, uning muxlislari yu o'quvchilari ko'payaversin!

Hurmatli "Vatanparvar"chilar! Sizlarga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt va quvonch, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lidagi fidokorona mehnatingizda ulkan zafarlar tilaymiz!



Ayyomingiz qutluq bo'lsin!

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Namangan viloyati kengashi tasarrufidagi Yangiqo'rg'on tumani o'quv sport texnika klubi jamoasi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi muassisligida chop etilayotgan "Vatanparvar" gazetasi jamoasini 32 yilligi bilan hamda respublikamizdagi barcha qalam ahlini 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan tabriklaydi.

Hurmatli soha xodimlari! Sizlarga eng avvalo, sog'lik salomatlik, oilangizga tinchlik xotirjamlik va ijodiy faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar hamda ijodiy parvozlar tilaymiz!





ISSIQ OB-HAVONING INSON ORGANIZMI UCHUN TA'SIRI

Kunning issiq vaqtida nimalarga e'tibor berishimiz lozim?

Hozirgi kunda yurtimizda taxmin qilingan issiq ob-havoning me'yoridan ancha yuqori bo'layotganini kuzatyapmiz. Jazirama issiq nafaqat ekologik muhitning buzilishiga, balki insonlar salomatligiga ham jiddiy ta'sir qiladi. Inson tanasiga quyosh nurining to'g'ridan to'g'ri ta'siri yoki me'yoridan ortiq issiqlik natijasida organizmda turli xil salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Aslida sog'lom odam organizmi o'zgarib turadigan tashqi muhit haroratiga yaxshi moslashadi. Inson tanasi qahraton sovuqda ham, jazirama issiqda ham tana haroratini bir maromda ushlab turadi. Tana haroratining bir maromda turg'un saqlanishi, asosan terlash hisobidan tanani sovitish xususiyati orqali amalga oshiriladi. Haddan tashqari terlash oqibatida inson tanasidan ko'p miqdorda suv chiqib ketishi mumkin. Bu ilmiy-tibbiy tilda termoregulyatsiya, ya'ni tanadagi haroratni boshqarish deyiladi. Tananing haddan tashqari qizib ketishi va terlashi oqibatida organizm suvsizlanadi va 2 soat mobaynida organizmdan 10 grammacha natriy xlorid tuzi chiqib ketadi.

Oftob yoki issiq urishi yuqori darajadagi issiqlik ta'sirida inson organizmi tabiiy muvozanatining buzilishidir. Oftob yoki issiq urishining quyidagi turlari mavjud: organizmning qizib ketishi, oftob yoki issiq urishi, dehidratatsiya (*suvsizlanish va tuzsizlanish*).

Oftob urishi bosh kiyimsiz quyoshning tik tushuvchi nurlari ostida uzoq vaqt davomida turish oqibatida bosh miyaning qizib ketishidir. Oftob urganda miyada hayotiy muhim bo'lgan markazlarning ishdan chiqishi yuz beradi. Odatda oftob urishi to'satdan boshlanadi. Bosh og'rig'i, ko'z tinishi, bosh aylanishi va ko'ngil aynishi, yuz sohasining qizarib ketishi kabi alomatlar yuzaga keladi. Bemor birdaniga hushdan ketishi mumkin, nafas va yurak urishi tezlashadi, qayt qiladi, tana harorati ko'tariladi.

Issiqlik urishi jaziramada yuqori darajadagi havo haroratining uzoq vaqt mobaynida inson organizmiga ta'siri natijasida tananing umumiy qizib ketishidir. Chanqash, lohaslik, bosh og'rish, quloq shang'illashi, ko'p terlash, yurak urishining tezlashishi va tana haroratining ko'tarilishi yuzaga keladi. Ushbu holat issiq urishining yengil

turi hisoblanadi. Agarda bemorga yordam ko'rsatilsa, bu belgilar tez o'tib ketishi mumkin. Og'ir holatlarda esa bemorning boshi qattiq og'riydi, ko'ngli aynib qusadi, ba'zan hushidan ketadi.

Issiqlik urishiga olib keluvchi omillarga faslga mos bo'lmagan kiyim kiyish, vaqtida ovqatlanmaslik, bir xonada ko'p vaqt mobaynida mashg'ulot olib borish va tanada terlash sababli hosil bo'lgan chanqoqlik hissinin vaqtida qondirmaslik kiradi. Bular natijasida qon quyuvlashadi, mineral tuzlarning odatdagi mutanosibligi o'zgaradi, markaziy asab tizimining turli bo'limlari faoliyati buzilishiga olib keladi.

Oftob yoki issiq urganda jabrlanuvchini dastavval salqin joyga olib o'tib, gorizontal holatda yotqizish, kiyim-boshini yechish, oyoqlarini ko'targan holda yotqizish, badanini sovuq suvda ho'llangan sochiq bilan artish va ko'proq suyuqlik ichirish zarur bo'ladi. Boshiga, ayniqsa yirik qon tomirlari o'tadigan soha, ya'ni bo'yinning ikki yoni, qo'ltig'i va chov sohasiga muzli xaltacha yoki sovuq suv solingan idish qo'yish zarur. Bemor hushini yo'qotsa, nashatir spirtini hidlatib uni hushiga keltirish va tez fursatda tibbiyot punktiga yetkazish talab etiladi.

Shuni unutmaslik zarurki, qizigan va qizargan teriga spirt surtish aslo mumkin emas. Chunki u teridagi mayda teshikchalarning berkilib qolishiga, teri yuzasining kuyishiga olib keladi va tanadagi issiqlikning tashqariga chiqishiga to'sqinlik qiladi.

Oftob yoki issiq urishidan saqlanish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilmoq lozim:

quyoshning tik tushuvchi nurlari ostida kiyimsiz va bosh kiyimsiz yurmaslik, tanani shamollatish yanada samaraliroq bo'lishi uchun esa shim tasmasini bo'shashtirib, kiyimning yengini qaytarib yurish tavsiya etiladi;

mashg'ulotlar jadvaliga to'liq rioya qilish, tushlikdan oldin va keyin 30 daqiqalik dam olish uchun vaqt ajratish, tushlikdan so'ng jismoniy zo'riqishni talab etadigan mashg'ulotlarni bajarmaslik;

ovqatlanishni tashkil etishda ko'p kaloriyalı ovqatlarni kunning salqin vaqtlariga belgilash;

barcha harbiy xizmatchilarning shaxsiy suvdonlari bo'lishi va ularni o'z vaqtida qaynatilgan suv yoki choy bilan to'ldirish, chanqoqni qondirish uchun esa har 1-2 soatda 1-2 stakandan suv ichish tavsiya etiladi;

shaxsiy tarkib bilan harbiy-jismoniy mashg'ulotlar o'tkazishda ularning jismoniy sifatlariga e'tibor berish, dala-o'quv maydonlariga mashg'ulot o'tash uchun chiqish oldidan shaxsiy tarkibni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va ularga kerakli ko'rsatmalar berish. Dala-o'quv maydonlariga piyoda chiqish vaqtida quyosh nuridan himoyalangan joylarda 10-15 daqiqali qisqa dam olishni tashkil qilish;

shaxsiy tarkibning mashg'ulotlar orasida cho'milishi uchun harbiy shaharchalarda va dala-o'quv maydonlarida yozgi dushlar tashkil qilish;

tibbiyot xodimlari tomonidan shaxsiy tarkibga oftob yoki issiq urishidan saqlanish to'g'risida hamda jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha suhbatlar tashkil qilish yaxshi samara beradi.

Tibbiy xizmat katta leytenanti

F. NIYOZOV,

Qurolli Kuchlar xizmatchisi

B. AXMEDOV,

Mudofaa vazirligi

Sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi mutaxassislari

O'Q OTISH BO'YICHA musobaqa o'tkazildi

Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan respublika OAV xodimlari o'rtasida o'q otish bo'yicha sport musobaqasi o'tkazildi.



"Sport - salomatlik garovi" shiori ostida o'tkazilgan ushbu musobaqaning asosiy maqsadi, jurnalistlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va ularni sport bilan faol shug'ullanishga keng jalb etish hisoblanadi. Qirqdan ortiq jurnalistlar ishtirok etgan musobaqa qizg'in, shu bilan birga, murosasiz bellashuvlarga boy bo'ldi.



Erkaklar o'rtasida Nizomjon Islomov ("Aniq.uz" sayti) hamda ayollar o'rtasida Kamola Israilova (MTRK media markazi) 1-o'rinni qo'lga kiritdi. E'tiborlisi, "Aniq.uz" sayti bosh muharriri Nizomjon Islomov 2021-yilda ham g'oliblikni qo'lga kiritgan edi.

G'oliblikni va faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan OAV vakillari "Vatanparvar" tashkilotining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

CHORVOQNING JOZIBASI mujassam maskan



Toshkent viloyati
Bo'stonliq tumani
Burchmulla aholi
yashash punktida
joylashgan Mudofaa
vazirligi Markaziy
harbiy sanatoriysi
harbiy xizmatchilar,
ularning oila a'zolari,
shuningdek boshqa
fuqarolarning dam
olishi va salomatligini
tiklashi uchun barcha
shart-sharoitlarga ega
maskan hisoblanadi.
Chimyon tog'ining
so'lim tabiati, Chorvoq
suv omborining
jozibasini o'zida
mujassamlashtirgan bu
maskan chinakamiga
kishiga huzur-halovat
bag'ishlaydi. Xullas
Markaziy harbiy
sanatoriyy joylashgan
hudud Shveysariyaning
Davos kurortlari
bilan tenglashsa
tenglashadiki, kam
emas.

Shahobiddin Abdullayev, Baxtiyor Ergashev singari harbiy xizmatchilar kun-u tun dam oluvchilarning xavfsizligini ta'minlash ishlarida bosh-qosh. Oilaviy o'tirish uchun maxsus supachalarda ovqatlanish shart-sharoitlari yaratilgan. Ayniqsa, tog'lar ortiga botayotgan quyosh shafag'ida Chorvoq suv omborining "olovli" mavjlanishini tomosha qilish qanchalik maroqli ekanligini o'z tanangizda his etish

olayotganimga 10 kun bo'ldi. Shifokorlar bilan maslahatlashib, muddatni yana besh kunga uzaytirdim. Farzandim harbiy xizmatchi. Uning yordami va tavsiyasi bilan ikkinchi marta Burchmullada dam olish, joyi kelganda, davolanish imkoniyatiga ega bo'ldim. Tabiat qo'ynida sayr qilish, yoshlar va kitobsevarlar uchun kutubxona xizmati, cho'milish basseyni, sport maydonlarining mavjudligini aytmayisizmi. Xullas bu

bosimlardan xoli bo'lish mumkin. Butun kun davomida tog' havosidan to'yib-to'yib nafas olishga nima yetsin...

Sanatoriyni 90 yoshli Sharifjon ota Abdulahadov hamda Yuliya Sergeyevna kabi doimiy mijozlari ko'pligi alohida e'tiborga molik. Chunki bunday dam oluvchilar sanatoriyy xodimlari uchun qadrdonlardek bo'lib qolgan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, harbiy shifokorlar hamda o'z ishining ustasi bo'lib ketgan hamshiralar barchaga xushmuomalalik



imkoniyatidan bahramand bo'lasiz. Bularning barchasi haqida sanatoriyyda dam olayotgan insonlarning gaplaridan bilib olish qiyin emas.
– Namangan viloyati Chust shahridan kelganman, – deydi 90 yoshli Sharifjon ota Abdulahadov. – Sanatoriyyda dam

yerda barcha yoshdagi insonlar maza qilib dam olish imkoniyatiga ega.
– Men 25 yil O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilib, nafaqaga chiqdim, – deydi Yuliya Sergeyevna. – Albatta, bizga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sanatoriyyda dam olishimiz uchun yaratilgan qulayliklar ham ana shu g'amxo'rlikning bir namunasi. Men oila a'zolarim bilan bu yerga 10 yildan buyon kelib dam olaman. Bu safar onamni hamroh qilib olib keldim. Bu yerda yakka yoki oilaviy dam olish imkoniyati mavjud. So'lim tabiat qo'ynida dam olish orqali ruhiy

bilan xizmat ko'rsatadi. Shirin so'z shifokorlarning eng ishonchli quroli ekanligini bu maskanning doimiy dam oluvchilari amalda sinab ko'rgan, desak, xato bo'lmaydi.

Asror RO'ZIBOYEV



@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



SHU SONNING
ELEKTRON SHAKLI

VATANPARVAR

MUASSIS



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:

kotibiyat: 71 260-36-50
buxgalteriya: 71 260-35-20
yuridik bo'lim: 71 260-29-41
faks: 71 260-32-29

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Nodirabegim Ne'matova
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5777
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 34 186 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz:
100164, Toshkent, Universitet ko'chasi, 1-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
www.mudofaa.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya